Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qiliş – oliy burçimiz!

2026-yil 13-noyabr / juma / № 46 (4792)

POSTDA

НА ПОСТУ ✦ AT THE POST

Gazeta 1930-yil 12-maydan çiqa boşlagan

Özbekiston Respublikasi Içki işlar vazirligi naşri

OSOYIŞTALIK VA TARAQQIYOT UYĞUNLIGI

Olot tumani qöşni Turkmaniston bilan çegaradoş hudud bölib, mamlakatimizga kirib kelayotgan xorijiy mehmonlar, tranzit transport vositalari va yuklar uçun muhim darvoza hisoblanadi. Şu bois Olot qiyofasi orqali yurtimiz, xalqimizning salohiyati va imkoniyatlari namoyon böladi.

Keyingi yillarda tumanda keng kölamli özgarişlar amalga oşirilmoqda. Ayni paytda tumanda 35 ta mahalla mavjud bölib, 108 ming nafardan ortiq aholi istiqomat qiladi. Dehqonçilik va çorvaçilik bilan bir qatorda sanoat ham rivojlanib, ellikka yaqin korxona va taşkilotlar faoliyat yuritmoqda.

Bu jarayonlarda tuman hokimi Nargiza Ne'matovaning aholi bilan hamjihatlikda olib borayotgan işlari muhim örin tutmoqda. Yaqinda Prezidentimizning viloyatga taşrifi çoği Olotda amalga oşirilayotgan işlar e'tirof etilib, hokim «Fidokorona xizmatlari uçun» ordeni bilan taqdirlandi.

3





SODIQ HAMROH

Ba'zan inson va jonivor örtasida şunday mehr, işonç paydo böladiki, uni söz bilan ifodalaş muşkul. Birgina nigoh, birgina işora kifoya – ular bir-birini tuşunadi. Xorazm viloyati IIB JXX JTSB Patrul-post xizmati batalyoni inspektori, kiçik serjant Jörabek Turdiyev va uning «Leonard» laqabli oti örtasidagi munosabat ana şunday samimiy riştalarga asoslangan.

6

HAFTA XABARLARI

OROLBÖYI UÇUN 3,3 MILLIARD DOLLAR

Özbekiston 2027–2029-yillarda Orolni qutqariş xalqaro jamğarmasiga raislik qiladi. Şu davrda suv resurslarini boşqariş, ekologik vaziyatni yaxşilaş va aholi turmuş şaroitini qöllab-quvvatlaşga qaratilgan 133 ta loyihani amalga oşiriş rejalaştirilgan. Ularning umumiy qiymati 3,3 milliard AQŞ dollarini taşkil etadi. Loyihalar suv xöjaligi inşootlarini modernizatsiya qiliş, suv taqsimotini avtomatlaştiriş, Amudaryo va Sirdaryo havzalari böyiça yagona ma'lumotlar bazasini yaratiş, toşqin va qurğoqçilikni oldindan prognozlaş hamda içimlik suvi ta'minotini yaxşilaşni qamrab oladi. Mablağlarni Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklaniş va taraqqiyot banki hamda xalqaro iqlim fondlari kömagida jalb qiliş közda tutilgan.

ÖZBEKISTON VA SAUDIYA: HAMKORLIK KENGAYTIRILADI

10-noyabr kuni Antaliya şahrida Prezident Şavkat Mirziyoyev Saudiya Arabistoni energetika, sanoat va mineral resurslar vaziri şahzoda Abdulaziz bin Salmon Ol Saud boşçiligidagi delegatsiya bilan uçraşdi. Muzokaralarda ikki mamlakat örtasidagi yirik qöşma loyihalar portfeli, xususan, «yaşil» energetikadagi hamkorlikni kengaytiriş masalalari muhokama qilindi. Şuningdek, neft-gaz, neft-kimyo va toğ-kon sanoatida hamkorlikni yangi bosqiçga olib çiqişga kelişib olindi. Uçraşuv BMTning Iqlim özgarişi böyiça konferensiyasi 31-sessiyasi doirasida ötkazildi.

ELEKTROTEXNIKA SANOATI: REJADA – 164 TA LOYIHA

Özbekistonda keyingi uç yilda elektrotexnika va unga turdoş sanoat tarmoqlarida umumiy qiymati 11,6 milliard AQŞ dollari bölgan 164 ta loyihani amalga oşiriş rejalaştirilgan. Ular energetika infratuzilmasi, kabel va transformatorlar işlab çiqariş, sanoat robototexnikasi, elektromobillar uçun uskunalar, mikroelektronika hamda maişiy texnika yönalişlarini qamrab oladi. Şuningdek, Nurafşon şahrida «Kelajak texnologiyalari markazi» taşkil etilib, elektronika va texnologik uskunalar işlab çiqaruvçi korxonalarga qator imtiyozlar beriladi. Bu vazifalar 9-noyabr kuni Prezident Şavkat Mirziyoyevning tadbirkorlar va xorijiy investorlar bilan muloqotida belgilandi.

Musurmon ZIYO tayyorladi.

POSTDA
НА ПОСТУ • AT THE POST

TIZIM FAOLIYATIDAN LAVHALAR



Aholini energetika resurslari bilan uzluksiz ta’minlaş, korrupsiya va talon-torojlikka qarşi kuraşiş çoralari belgilandi.



Mamlakatimiz miqyosida ötkazilayotgan «Xavfsiz va soğlom yurt» keng kölamli tezkor-profilaktik tadbirlarining dastlabki ön kunlik tahlili.



Nukus şahrida "Xavfsiz va soğlom yurt" tezkor-profilaktik tadbiri davomida huquqbuzarliklarning erta oldini oliş, jinoyatçilikka qarşi kuraşiş va voyaga yetmaganlar bilan boğliq holatlarning oldini oliş maqsadida tarğibot-taşviqot işlari va reyd tadbirlari olib borildi.



“Xavfsiz va soğlom yurt” keng qamrovli tezkor-profilaktik tadbirlari doirasida Samarqandda xorijiy va mahalliy sayyohlarning xavfsizligini ta’minlaş borasida tizimli işlar amalga oşirilmoqda.

Tadbir

SALOMATLIK POSBONLARIGA EHTIROM

Tibbiyot xodimlari kuni munosabati bilan Içki işlar vazirligida tantanali bayram tadbiri ötkazildi. Unda IIV rahbariyati, tibbiyot muassasalari xodimlari, Soğliqni saqlaş vazirligi hamda hamkor taşkilotlar vakillari iştirok etdi.



Tadbirda sözga çiqqan Içki işlar vaziri, general-leytenant Aziz Taşpulatov soha xodimlarini kasb bayrami bilan tabrikladi. U içki işlar organlari xodimlari, ularning oila a’zolari va faxriylar salomatligini muhofaza qiliş borasida tibbiyot xodimlarining fidokorona mehnatini alohida e’tirof etdi.

Ta’kidlanganidek, davlatimiz rahbarining sohaga qaratayotgan e’tibori tufayli IIV tibbiyot xizmatida ham keng kölamli islohotlar amalga oşirilmoqda. Davolaş muassasalari modernizatsiya qilinib, zamonaviy texnologiyalar joriy etilmoqda. Bugungi kunda IIV tibbiyot tizimida 11 ta statsionar davolaş muassasasi, 16 ta ambulator poliklinika, sanatoriy va ixtisoslaşgan tibbiy tuzilmalar faoliyat yuritmoqda. Sönggi yillarda hududlarda yangi tibbiyot muassasalari taşkil etilib, mavjudlari zamonaviy uskunalar bilan jihozlandi.

Qaşqadaryo, Jizzax, Buxoro, Sirdaryo va Farğona viloyatlarida yangi gospitallar taşkil etilişi natijasida ularning umumiy soni 7 tadan 12 taga yetkazildi. Bu esa xodimlarning davolaniş uçun poytaxtga boriş zaruratini kamaytirib, hududlarda malakali tibbiy xizmatdan foydalaniş imkoniyatlarini kengaytirdi.

Şuningdek, 2025–2026-yillarda Toşkent şahar IIBB poliklinikasi, Buxoro viloyati IIB gospitali, Farğona viloyati poliklinikasi hamda Namangan şahridagi gospitalning «Ma’danli suv bilan davolaş» binosida kapital ta’mirlaş işlari amalga oşirildi. Toşkent viloyati IIBB Tibbiyot bölimi esa zamonaviy talablarga javob beradigan, zarur infratuzilma va qulay şart-şaroitlarga ega yangi binoga joylaştirildi. Ayniqsa, IIV Markaziy gospitalida yuqori texnologik operatsiyalar sonining sönggi ikki yilda 750 tadan 2 100 taga oşgani sohadagi yangilanişlarning amaliy natijasidir.

Tantanali marosimda öz kasbiga sadoqati, yuqori malakasi va samarali mehnati bilan ajralib turgan bir guruh tibbiyot xodimlari Içki işlar vazirining buyruğiga asosan muddatidan oldin maxsus unvonlar, idoraviy kökrak nişonlari hamda qimmatbaho esdalik sovğalari bilan taqdirlandi.

Darhaqiqat, inson salomatligini asraş, dardiga malham böliş nafaqat kasbiy burç, balki ulkan mas’uliyat va fidoyilik namunasidir. Içki işlar organlari tibbiyot xodimlarining bu boradagi xizmatlari şaxsiy tarkibning salomatligi va xizmatga şayligini ta’minlaşda muhim örin tutadi. Kasb bayrami munosabati bilan ötkazilgan tadbir ana şu şarafli kasb egalariga körsatilgan yuksak ehtirom va e’tiborning yorqin ifodasi böldi.

Javohir BAFOYEV,
mutaxassis-muxbir,
katta leytenant.

Xavfsiz va soğlom yurt

RAQAMLI OLAMDA HUŞYORLIK

Poytaxtimizning Çilonzor tumani IIOFMB huzuridagi Migratsiya va personallaştiriş bölimi xodimlari tomonidan «Xavfsiz va soğlom yurt» keng qamrovli tezkor-profilaktik tadbiri doirasida aholi örtasida tarğibot işlari taşkil etilmoqda. Ötkazilayotgan uçraşuvlar va muloqotlar davomida fuqarolarga internet tarmoğida uçraşi mumkin bölgan turli firibgarlik holatlari, zamonaviy kiberxavflar hamda ulardan himoyalaniş usullari haqida zarur tavsiyalar berilmoqda.



Şu bilan birga, Özbekiston Respublikasi fuqarolari, çet el fuqarolari hamda fuqaroligi bölmagan şaxslarni yaşaş va turgan joyi böyiça röyxatga olişga oid amaldagi qonunçilik talablari yuzasidan ham batafsil tuşuntirişlar olib borilmoqda. Bundan taşqari, fuqarolarga «APK Qöriqçi» mobil ilovasini örnatiş, undan samarali foydalaniş tartibi amaliy tarzda körsatib berilmoqda.

Mazkur profilaktik tadbirlarning boş maqsadi aholining huquqiy hamda raqamli savodxonligini yuksaltiriş, internet orqali sodir etiladigan jinoyatlarning barvaqt oldini oliş, fuqarolarning xavfsizligini ta’minlaş hamda jamiyatda osoyişta muhitni yanada mustahkamlaşdan iborat.

Sarvar SOBIROV,
öz muxbirimiz.
Toşkent şahri.

TUNGI XIZMAT JARAYONI ÖRGANILDI

Mamlakatimizda aholining tinç-osoyişta va xavfsiz hayot keçirişini ta’minlaş, jamoat tartibini saqlaş hamda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini oliş ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Içki işlar vaziri, general-leytenant A. Taşpulatov Toşkent şahrida tungi vaqtda jamoat xavfsizligini ta’minlaşga jalb etilgan içki işlar organlarining sohaviy xizmatlari hamda boşqa huquqni muhofaza qiluvçi idoralar xodimlarining hamkorlikdagi faoliyatini örgandi.

Örganişlar markazida ötkazilayotgan «Xavfsiz va soğlom yurt» keng qamrovli tezkor-profilaktik tadbirlarini yuqori saviyada, sifatli va samarali taşkil etiş masalasi turdi. Xizmat olib borayotgan xodimlarning huşyorligi, tezkor harakatlanişga şayligi hamda aholi osoyiştaligini işonçli himoya qiliş böyiça amalga oşirilayotgan çora-tadbirlar natijadorligi tahlil qilindi.

«TAŞKENT CITY»: XAVFSIZ TURIZM YÖLIDA YANGI QADAMLAR

Sönggi yillarda poytaxtimizning eng gavjum va jozibador maskanlaridan biriga aylangan Şayxontohur tumanidagi «Taşkent City» majmuasida jamoat tartibini saqlaş va xavfsiz muhit yaratiş masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Içki işlar vaziri Musiqali favvora va «Taşkent City» xiyoboni, «Taşkent City Mall» va «Park in Mall» kabi yirik savdo hamda köngiloçar maskanlarda mahalliy va xorijiy taşrif buyuruvçilar uçun yaratilgan xavfsizlik şaroitlarini közdan keçirdi.

Poytaxtimizga taşrif buyurayotgan xorijiy sayyohlar oqimi sezilarli darajada ortganini inobatga olib, vazir uşbu hududda xavfsiz turizmni ta’minlaş böyiça maxsus otryad faoliyatini yölga qöyiş yuzasidan mas’ul rahbarlarga topşiriqlar berdi.

TEZKORLIK VA HUŞYORLIK SINOVDAN ÖTKAZILDI

Tungi vaqtda yuzaga kelişi mumkin bölgan favqulodda holatlarga tezkor munosabat bildirişda asosiy omil bölgan tezkor harakatlanuvçi qöriqlaş ekipajlarining faoliyati ham alohida e’tiborda böldi. Vaziyatni bevosita baholaş maqsadida çaqiruv tugmalari (signalizatsiya) orqali ekipajlarning çaqiruvga yetib keliş vaqti, huşyorligi, şayligi va tezkor harakatlaniş darajasi amalda sinovdan ötkazildi.

Mirzo Uluğbek tumanidagi «Özbekiston ovozi» köçasida 24/7 rejimida faoliyat yurituvçi köngiloçar va umumiy ovqatlaniş obyektlari, savdo va xizmat körsatiş şoxobçalari joylaşgan bölib, tungi vaqtda aholi va dam oluvçilar gavjum böladi.

Vazir uşbu hududda dam oluvçilarning xavfsizligi bilan bir qatorda, atrofdagi xonadonlarda istiqomat qiluvçi aholi tinçligi va osoyiştaligini ta’minlaşga alohida e’tibor qaratdi. Hududga biriktirilgan Huquq-tartibot maskani faoliyati örganilib, unda xizmat olib borayotgan profilaktika inspektorlari, patrul-post va qöriqlaş xizmatlari xodimlari bilan suhbatlar ötkazildi. Xodimlarning xizmat intizomi, muloqot madaniyati hamda ular uçun yaratilgan şaroitlar batafsil körib çiqildi.

Poytaxtimizda aholi va şahrimiz mehmonlarining osoyiştaligini kun-u tun ta’minlaşga qaratilgan bu kabi keng qamrovli profilaktik tadbirlar izçil va tizimli ravişda davom ettirilmoqda.

Feruz YÖLDOŞOV,
öz muxbirimiz.
Sodiq HAKIMOV
olgan suratlar.









Çekka hududlarda OSOYIŞTALIK VA TARAQQIYOT UYĞUNLIGI

(Davomi. Boşlanishi 1-betda.)

HAMKORLIK SAMARASI

Hudud taraqqiyoti bilan birga aholi osoyiştaligini ta’minlaş, huquqbuzarlik va jinoyatçilikning barvaqt oldini olişga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada tuman içki işlar bölimi xodimlari mahalla faollari va jamoatçilik bilan hamkorlikda tizimli iş olib bormoqda.

– Xodimlarimiz jinoyatlarning oldini oliş, yuz berganlarini foş etiş va qonun ustuvorligini ta’minlaş yölida fidoyilik körsatmoqda. Profilaktik hisobdagi şaxslar bilan yakka tartibda işlaş, ularga huquqiy tuşuntirişlar beriş öz samarasini körsatmoqda, – deydi tuman IIB boşliği, podpolkovnik Azizbek Radjabov. – Amalga oşirilayotgan profilaktik tadbirlar natijasida yilning ötgan ön oyi mobaynida 24 ta mahallada jinoyat sodir etilişiga yöl qöyilmadi va ular «yaşil» toifaga kiritildi.

Röy bergan jinoyatlar mahallalarda muhokama etilib, kelib çiqiş sabablari tahlil qilinmoqda. Mahalla yettiligi, profilaktika inspektorlari va jamoatçilik vakillari hamkorligida oilaviy nizolarning oldini oliş, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirişga ham e’tibor kuçaytirildi.

XAVFSIZLIK TAYANÇI

Tuman markazida joylaşgan «Navröz» mahallasida kriminogen vaziyatni barqarorlaştiriş borasida muayyan işlar amalga oşirilmoqda. Hududda ikkita bozor, temir yöl vokzali, yirik umumiy ovqatlaniş şoxobçalari va öndan ortiq davlat taşkiloti mavjud. Aholining asosiy qismi tadbirkorlik bilan şuğullanadi. Mazkur mahallada uç yildan buyon profilaktika inspektori, kapitan Siroj Jöraqulov samarali faoliyat yuritib kelmoqda.

– Profilaktika inspektorimiz qisqa vaqt içida aholining işonçi va hurmatini qozondi. U bilan birgalikda ijtimoiy-ma’naviy muhitni soğlomlaştiriş, kambağallikni qisqartiriş, obodonlaştiriş va jamoatçilik nazoratini kuçaytiriş böyiça köplab işlar amalga oşirildi. Eng muhimi, beş yil «qizil» toifada bölgan mahallamiz joriy yil boşidan «yaşil» toifaga ötdi, – deydi mahalla xotin-qizlar faoli Dilorom Şomurodova.

Mahallada tinçlik va totuvlikni mustahkamlaşda nuroniylar hamda faol onaxonlarning hissasi ham katta. Xususan, yaqinda oilaviy kelişmovçilik tufayli ajraşiş arafasiga kelib qolgan yoşlar hayotiy maslahatlar yordamida yaraştirildi.

Şuningdek, jinoyatçilikning oldini oliş maqsadida hududda 300 dan ortiq videokuzatuv kamerasi örnatildi. Oltmişga yaqin xonadon va 24 ta obyekt qöriqlaş pultiga ulanib, markazlaştirilgan tizimga integratsiya qilindi.

Olotdagi bugungi bunyodkorlik işlari, mahallalardagi hamjihatlik va içki işlar organlarining fidokorona xizmati özaro uyğunlikda hudud osoyiştaligini ta’minlaşga xizmat qilmoqda. Zero, taraqqiyotning muhim şarti – tinçlik, xotirjamlik va xalq işonçidir.

Mirzoqul AHADOV,
öz muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

«ÖZ» ĞOYASI

Yurt taqdiriga daxldorlik tuyğusi içki işlar organlari xodimlari xizmatida yaqqol namoyon bölişi kerak

Inson tabiati şunday: har kuni körib turgan, könikib qolganlarimizni oddiy holatdek qabul qilamiz. Masalan, soğliğimizni olaylik. Soğlom paytimiz xuddi şunday bölişi kerakdek tuyuladi. Uni yöqotib, tanamiz biror darddan azob çeka boşlagaç, dunyo közimizga qoronği bölib qoladi. Butun boyligimiz evaziga bölsada, uni qaytarişga rozi bölamiz.

Tinçlik – bunday ne'matlarning eng oliysi. Zero, jamiyatimizda hukm surayotgan tinçlik-osoyiştalik muhiti barqarorki, har kuni bemalol uxlaymiz, ertangi kunga rejalar tuzamiz, farzandlarimizni xavotirsiz öqişga kuzatamiz.

Ha, bularning barçasi – moddiy va ma'naviy boylik orttiriş, obrö-e'tibor qozoniş, qaysi kasb yoki lavozimda bölmasin, muvaffaqiyatga erişiş faqat bir şart – tinçligimiz barqaror bölgandagina amaliy mazmunga ega böladi. Ana şunda xotirjam tortamiz, qilayotgan işimizdan qoniqiş, hayotimizdan tökislik tuyamiz. Binobarin, tinçlik-osoyiştalik, xotirjamlik xuddi biz nafas olayotgan havoga öxşaydi: borligida sezilmaydi, ammo bir lahza yetişmay qolsa, hayot töxtab qolganday böladi.

Aslida, ayni kezlarda tinçlik qadrini ortiqça ta'riflaşga zarurat yöq. Çunki aksariyatimiz bugun ijtimoiy tarmoqlar orqali dunyoning turli mintaqalarida davom etayotgan qurolli töqnaşuvlar, ularning oqibatida farzand doğida azob çekayotgan ota-onalar, bir keçada yetimga aylanib qolayotgan bolalar, oçlik, çorasizlikdan sillasi qurigan xalqlar – millionlab taqdirlar misolida tinçlikning naqadar bebaho ne'mat ekaniga guvoh bölib turibmiz.

Ana şunday pallada nafaqat tinç va osoyişta yurtda, balki Prezidentimiz taşabbusi bilan boşlangan yangi Özbekistonni barpo etiş ğoyasi zamirida, avvalo, inson qadrini uluğlaş mujassam ekani va asosiysi, ana şu maqsad yölidagi şiddatli islohotlar samarasi har bir soha va tarmoq, şahar va qişloq, har bir xonadon yoki taqdir hayotida tub buriliş yasayotgan mamlakatda yaşayotganimizga şukrona aytamiz.

Darhaqiqat, keyingi yillarda yurtimiz tamoman özgardi. «Inson – jamiyat – davlat» tamoyili asosida davlat boşqaruvi mohiyati yangilandi. Avvalo, inson va uning qadr-qimmati! Yurtimizda keçayotgan barça islohotlar, yangilanişlar markaziga aynan şu talab qöyildi: bu loyiha insonlarga qanday manfaat olib keladi, bu özgariş yurtdoşlarimizga qanaqa qulaylik keltiradi, bu qaror aholining bugungi hayotini qançalik ijobiy tomonga özgartiradi, bu taşabbus xalqimiz xohiş-istagini qançalik töliq ifoda etadi?

Markazga aynan inson qadrini uluğlaş maqsadining qöyilişi, şubhasiz, bugun qölga kiritilayotgan barça yutuqlar, tarixiy natijalarning asosiy omillaridan. Buni içki işlar tizimidagi yangilanişlar, jamiyatimizda hukm surayotgan tinçlik va osoyiştalikni ta'minlaşda uşbu tizimning örni misolida ham köriş mumkin.

Jumladan, mamlakatimizda har yili 25-oktabr Içki işlar organlari xodimlari kuni sifatida nişonlanadi. Ayniqsa, bu yilgi kasb bayrami Özbekiston Respublikasi Içki işlar vazirligi taşkil etilganining 35 yilligi bilan hamohang keçdi. Mazkur sana munosabati bilan Prezidentimiz içki işlar organlari xodimlari va faxriylariga bayram tabrigi yölladi.

Unda içki işlar xodimlarining maşaqqatli mehnatidan taşqari, ularning oila a'zolari va faxriylarga ham alohida e'tibor qaratilgani butun tizim şaxsiy tarkibi, ustoz-murabbiylar, ularning ota-onalari, turmuş örtoqlari va farzandlarini çeksiz quvontirdi. Ayniqsa, tabrikdagi quyidagi jumlalar har bir xodimni birday ruhlantirib, özgaça kuç-ğayrat bağişlagani şubhasiz.

«Uşbu qutluğ kunda xalqimiz osoyiştaligini ta'minlaş, fuqarolarimizning huquq va manfaatlarini himoya qiliş yölidagi sadoqatli xizmatingiz uçun barçangizga samimiy minnatdorlik bildiraman.

Albatta, yurtimizda öz farzandini maktabga kuzatayotgan ota-onaning xotirjamligi, mahallalarimizdagi osoyişta hayotni mustahkamlaşda sizlarning kundalik fidokorona mehnatingiz va hissangiz borligini barçamiz yaxşi bilamiz».

Prezidentimizning bu iliq fikrlari butun tizimga berilgan yuksak baho va işonç bölişi bilan birga, har birimizning zimmamizga ulkan mas'uliyat ham yuklaydi.

Davlatimiz rahbarining yuksak e'tibori, kasb bayrami munosabati bilan bir guruh xodimlarning davlat mukofotlari bilan taqdirlangani zamirida tizimdagi vatanparvar va sadoqatli insonlarning tun-u kun qilayotgan zahmatli mehnatiga berilgan baho bilan birga yana bir muhim jihat bor.

Bu jamiyatimizda xavfsiz muhit yaratiş masalasi doimo kun tartibida bölib, tizimning barqaror işlaşi uçun zarur taşkiliy, huquqiy, ijtimoiy, moddiy şaroitlar yaratib berilgani samarasidir.

Ötgan 35 yilda içki işlar organlari tizimi murakkab yölni bosib ötdi. Ayniqsa, mustaqillikning ilk yillaridagi oğir ijtimoiy vaziyat, uyuşgan jinoyatçilik, terrorizm va ekstremizmga qarşi kuraş borasida katta amaliy tajriba töplandi. Yurt tinçligi, jamiyat barqarorligi yölida içki işlar xodimlari muhim örin tutib kelmoqda.

Bundan 10–15 yil oldin xizmat qilgan, oddiy mahalla profilaktika inspektori keça-yu kunduz xizmat burçini mas'uliyat bilan bajarar, oilalar, xonadonlar xotirjamligi uçun yelib-yugurar edi, lekin hammasining ham öz uyi, boşpanasi bormidi, avtomaşinasi-çi? Qança maoş olardi özi? Yoki uning oilaviy ahvoli, farzandlarining kelajagi haqida kimdir qayğurarmidi?

Ayrim hollarda öz xizmat vazifasiga tegişlimi yoki yöqmi – topşiriqni bajargani uçun oxir-oqibat aybsiz aybdor bölib qolganlari ham uçrab turardi. Asli vazifasi jinoyatçilikka qarşi kuraş bölgan militsiya xodimi paxta terimi, buğdoy örimi, hatto dalaga mineral va mahalliy öğit berilişi kabi jarayonlarga ham safarbar etilgani haqiqat.

Bularning barçasi bitta masalaga boğliq edi, ya'ni qonunga. Içki işlar organlari tizimi mustaqillikning çorak asri davomida qonunsiz, vaqtinçalik nizom asosida işlaganini köpçilik yaxşi biladi. Şu bois, 2016-yil 16-sentabrda «Içki işlar organlari töğrisida»gi qonunning qabul qilingani çinakam tarixiy voqea böldi. Mazkur hujjat tizim faoliyatining huquqiy asoslarini tizimlaştiriş, ularning vazifalari, huquq va majburiyatlarini aniq belgilaş, xodimlarning ijtimoiy himoyasini kuçaytiriş yölidagi islohotlarni boşlab berdi.

Qonun tizim xodimlarining ertangi kunga işonçini mustahkamladi. Nafaqat özi, balki oilasi, farzandlari kelajagi uçun ham umid paydo böldi. Mavjud tartibdan kelib çiqib, kunbay işlovçi xodimlarda yangilikka intiliş, öz ustida işlaş könikmalari uyğondi. Şaxsiy tarkibning asosiy qismi quyi böğinga tuşirilib, markazdan boşqariladigan uzoq tizimdan bevosita mahallalarda faoliyat yuritiş yölga qöyildi.

Bugun Vatan ostonasi bölgan mahallada profilaktika inspektorining öz uyi bor. Xonadon peştoqiga bu uyda profilaktika inspektori yaşaşi haqida ma'lumot yozilib, davlatimiz bayroği örnatilgan. Xodimlarning oilasidan köngli töq, mahalla ahli bilan bir oila kabi ahil-inoq faoliyat yuritişi uçun zarur mexanizmlar yaratilgan. Köça va yölaklarni raqamlaştiriş, aholi bilan oçiq muloqotni yölga qöyiş, xonadonbay işlaş usullari xodimlarni xalqqa yanada yaqinlaştirib, muammolarni hududning özida hal etiş, yuz berişi mumkin bölgan jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini barvaqt oliş imkonini bermoqda. Qisqasi, bugun har bir mahallaning öz egasi bor.

Davlatimiz rahbari hududlarga taşrifi çoğida mahallalarda ham bölib, oddiy profilaktika inspektorlari bilan suhbatlaşib, ularning muammo va takliflarini eşitişi, köp hollarda joylarda mas'uliyat bilan xizmat qilayotgan oddiy xodimlarni munosib rağbatlantirişi minglab xodimlarni ruhlantirib, fidoyilik va sadoqat bilan xizmat qilişga undamoqda.

Sönggi yillarda tizimda oçiqlik va şaffoflikni ta'minlaşga e'tibor qaratilib, jamoatçilik nazorati kuçaydi. Doimiy tarzda jurnalistlar, blogerlar va ommaviy axborot vositalari iştirokida matbuot anjumanlari taşkil etilmoqda. Ommaviy axborot vositalari vakillari içki işlar organi xodimlariga, mas'ul rahbarlarga eng qaltis savollarni ham bemalol berişi, mas'ullarning holat yuzasidan jamoatçilikni xabardor qiliş könikmasi ham şakllandi.

Bugun fuqarolarning har bir murojaatini çuqur örganiş va qonuniy hal etiş çoralarini köriş orqali odamlarning roziligiga erişiş, murojaatlarni körib çiqişni faqat ma'muriy jarayon emas, boşqaruv sifati körsatkiçi deb baholaş faoliyatda asosiy mezonlardan biriga aylandi. Içki işlar vaziri tomonidan har oyning oxirgi yakşanbasida, vazir örinbosarlari va hududiy rahbarlar tomonidan esa har haftada şaxsiy va sayyor qabullar ötkazilişi tizimli yölga qöyildi. Tuman içki işlar bölimi boşliğidan tortib, içki işlar vazirigaça bölgan mas'ullarning mahallalarda sayyor qabullar taşkil etib, aholining dard-u taşvişini tinglaşi, muammolariga yeçim topişi odatiy hol bölib qoldi. Bu jarayon davlatimiz rahbarining «Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqimizga xizmat qilişi kerak» degan ezgu ğoyasining amaliy ifodasi böldi. Bularning barçasi yaqin ötmişdagi «militsiyadan uzoqroq yuriş kerak» degan xavotirli qaraşlarga barham berib, fuqarolarning tizimga işonçi ortişiga xizmat qilmoqda.

Oldinlari bir yoqadan boş çiqarib işlaşini tasavvur qilib bölmaydigan hududlardagi ma'muriy idoralar ham yagona maqsad yölida birlaşib, hamkorlikda işlay boşladi. Jamiyatda xavfsiz muhit yaratiş borasidagi vazifalarni bajarişda faqat içki işlar organlari emas, hokimlik, prokuratura, milliy gvardiya, soliq, soğliqni saqlaş, ta'lim, mahalla kabi idora va taşkilotlar ham birday javobgar ekani belgilandi.

Har bir hududda xavfsiz muhitni ta'minlaş barça darajadagi rahbarlar uçun ustuvor vazifaga aylandi. Kriminogen vaziyati oğir mahallalarga içki işlar organlari bilan bir qatorda boşqa mutasaddi taşkilotlar rahbarlari va huquq-tartibot sohasidagi ta'lim muassasalari biriktirilib, kundalik manzilli işlaşga asoslangan «yagona faoliyat zanjiri» şakllantirildi. Joriy yilning ötgan davrida mamlakatimizdagi mahallalarning qariyb yarmida jinoyat sodir etilmagani ham amaliy sa'y-harakatlar samarasi, albatta.

«Içki işlar organlari – jazolovçi organ» degan tuşunça butkul barham topib, hozir içki işlar organlari sifatli davlat xizmatlari körsatuvçi tizim sifatida namoyon bölmoqda. Bugun vazirlik tomonidan körsatilayotgan 60 turdagi davlat xizmatining 55 tasi töliq raqamli şaklga ötkazilgan. Mazkur yönalişdagi işlar yuqori baholanib, joriy yil boşida BAAning xalqaro ekspertlari tomonidan Davlat boşqaruvi samaradorligini baholaş dasturi doirasida mamlakatdagi 41 ta vazirlik va idoralar örtasida ötkazilgan tanlov natijalariga köra, Içki işlar vazirligi davlat xizmatlarini körsatiş yönalişida ğolib deb topildi.

Içki işlar tizimida ham yuksak malakali, zamonaviy fikrlaydigan, öz burçiga, Vatanimiz va xalqimizga sodiq xodimlar islohotlar taqdirini belgilaydi. Şu bois, xodimlarni yuksak bilim va kasbiy mahoratga ega, vatanparvar, el-yurt osoyiştaligini asraş borasidagi burçini vijdonan bajaradigan, milliy ğurur va Vatanga sadoqat tuyğusiga ega, fidoyi insonlar sifatida tarbiyalaş, ularning kasbiy, jangovar va jismoniy tayyorgarligini oşirişga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Davlatimiz rahbarining tabrigida «Özingni angla va özgani qadrla» degan tamoyilga amal qilgan holda faoliyat olib boriş içki işlar sohasi uçun ham muhim ahamiyatga ega», deb qayd etildi.

Darhaqiqat, «inson qadri uçun» tamoyiliga asoslangan islohotlar yangilanişlar jarayonida tizimning xalqçil tuzilmaga aylanişi, fuqarolarning içki işlar organlari faoliyatidan roziligiga boğliq. Qolaversa, tizimda xizmat qilayotgan xodimlarning töğriligi, halolligi, har qanday vaziyatda ham adolat tamoyillariga köra iş körişi juda muhim.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali bugungi içki işlar organlari faoliyati yuzasidan fuqarolarning bildirayotgan mulohazalari, xodimlarning qaltis vaziyatlardagi qonuniy va öz örnida çin insoniy harakatlariga jamoatçilik tomonidan ijobiy munosabat bildirilişi «xalqçil tizim» ğoyasining amaldagi ifodasi bölibgina qolmay, içki işlar organlarining ijobiy imiji şakllanib borayotganini ham körsatmoqda.

Prezidentimizning tabrik sözlaridagi quyidagi da'vat, öylaymanki, har bir xodimning milliy ğurur va sadoqat bilan bajarayotgan muqaddas burçining şaraf va mas'uliyatini yanada teranroq anglaşga undaydi.

«Bugungi kunda biz ilgari surayotgan «Öz» ğoyasi zamiridagi yurt taqdiriga daxldorlik tuyğusi sizlarning xizmatingizda ham yaqqol namoyon bölişi kerak. Har bir xonadonning osoyiştaligini öz oilangiz tinçligidek asraş – «Özimning Özbekistonim» degan iftixor hissining amaliy ifodasiga aylanişi lozim».

Zero, ona Vatan tinçligi, eldoşlar xotirjamligi yölida xizmat qiliş, özini şu yurt taqdiriga daxldor deb bilgan inson uçun çinakam vatanparvarlik va yuksak iftixordir.

Xurşidbek RÖZIYEV,
Içki işlar vazirligi Birlaşgan tahririyati boş muharriri, podpolkovnik.

(«Yangi Özbekiston» gazetasidan olindi.)

Faxriylar — faxrimiz

ORIFJON TOĞANING JAYDARI FALSAFASI

Hayotda şunday insonlar böladiki, ularning sözlari kitoblarda yozilmagan, ammo umr dovonidan ötib, hayotning özida toblangan haqiqatlardir. Bunday kişilar köp gapirişni xuş körmaydi, biroq bir oğiz gapi bir dunyo ma’no kasb etadi. Muhimi, ular özlari aytgan har bir gapga avvalo özlari amal qiladi. “Nuroniy” jamğarmasining Uçköprik tuman bölimi rahbari, iste’fodagi mayor Orifjon Tupayev ham ana şunday dilkaş insonlardan biri.



U bilan suhbatlaşsangiz, murakkab iboralar, balandparvoz nasihatlar eşitmaysiz. Hammasi oddiy, sodda, xalqona. Lekin şu oddiy gaplar zamirida bir umrlik tajriba, köpni körgan insonning xulosasi va hayotga nisbatan özgarmas qaraşlari mujassam.

Men bu jonkuyar faxriyni turli tadbirlarda köp körganman. Doim nuroniylarning old safida, taşkiliy işlar bilan andarmon yuradi. Bugun öz boy tajribasini yoş xodimlarga örgatib kelayotgani esa haqiqatan ham tahsinga sazovor.

Xizmat faoliyati davomida faqat profilaktika yönalişida işlaydigan lavhamiz qahramoni Uçköprik tumani IIB JXX HOOB boşliği lavozimidan pensiyaga çiqdi.

Orifjon Tupayev pensiyaga çiqqanidan keyin ham el taşvişidan çetda qolmadi. U 2004–2022-yillarda Uçköprik tumanidagi “Kenagas” mahalla fuqarolar yiğini raisi sifatida faoliyat yuritdi. 2023-yildan buyon esa “Nuroniy” jamğarmasining tuman bölimiga rahbarlik qilib, 24 mingdan ziyod nuroniylarga boşqoş bölib kelmoqda.

El orasida işlaşning öz qoidasi bor: birovning könglini oğritmaslikka harakat qilasan, ammo haqiqatdan ham köz yummaysan; odamlarning gapini eşitasan, lekin har bir gapga ergaşib ketmaysan. Eng muhimi – odamlar işonçini oqlaş. Orifjon Tupayevning köp yillik faoliyatiga nazar taşlar ekanmiz, uning hayotdagi asosiy mezoni aynan şu – halollik va odamiylik ekanini anglaymiz.

– Içki işlar organlarida Karimjon Mirzahakimov, A’zamjon Hakimov, Akbarjon Toştemirov kabi öz kasbiga sodiq ustozlarim meni doim halollikka undab kelişdi, – deydi lavhamiz qahramoni. – Keyinçalik özim ham şogirdlarimga bir gapni doim uqtirib keldim: “Nafsingning gapiga kirma – biring ikki böladi. Halollikda halovat bor!” Bu ögitlarimga amal qilgan şogirdlarim xizmatda katta yutuqlarga erişib, rahbarlik lavozimlariga kötarildi va el-yurt hurmatini qozondi.

Darvoqe, Orifjon Tupayev özi istiqomat qiladigan “Begobod” mahallasi profilaktika inspektori, katta leytenant Azizbek Karimovga murabbiy sifatida biriktirilgan. U yoş xodimga öz tajribalarini örgatib, mahallada jinoyatçilik va huquqbuzarliklarning oldini olişga munosib hissa qöşib kelmoqda.

Orifjon Tupayev uç öğil va bir qizni tarbiyalab voyaga yetkazib, bugun qöşa-qöşa nabiralar davrasida keksalik gaştini surmoqda. Turmuş örtoği Munisxon Tupayeva bilan birga farzandlar tarbiyasida doim şaxsiy namuna böldi. Quvonarlisi, uçinçi öğli Möminjon Tupayev ota kasbini davom ettirib, içki işlar organlarining PPX va YPX sohaviy xizmatlarida faoliyat yuritib, 2025-yilda pensiyaga çiqdi.

Orifjon Tupayevni ta’riflaş uçun murakkab söz va iboralarni izlamadim. Uning samimiyligi, soddaligi, odamlar bilan tez til topişişi va fikrini oçiq-oydin bayon etişi – özига xos fazilat. Bunday insonlar bilan suhbatlaşganda, ba’zan bir piyola çoy ustida aytilgan ikki oğiz gapning özi katta saboq beradi odamga.

Xayrlaşayotganda, u kişining öşa gapi xayolimda qayta-qayta aylanaverdi: “Nafsingning gapiga kirma – biring ikki böladi. Halollikda halovat bor!”

Abduvosit SIDIQOV,
öz muxbirimiz.
Farğona viloyati.

Ikkinçi imkon

ISTIQBOL UÇUN ZAMIN

Yurtimizda inson qadrini uluğlaş, fuqarolarning hayotda öz örnini topişiga kömaklaşiş davlat siyosatining muhim yönalişlaridan biriga aylandi. Ana şunday ezgu maqsadga xizmat qilayotgan xayrli taşabbuslardan biri – “Ikkinçi imkon” loyihasidir.



Şerobod tumanida joylaşgan 41-sonli manzil-koloniyasida jazo muddatini ötayotgan yoşlarni zamonaviy kasblarga öqitiş, ularga yangi bilim hamda könikmalar beriş orqali jamiyatga integratsiyalaşuviga kömaklaşiş maqsadida muassasadagi maxsus öquv xonalari ta’mirlanib, zamonaviy kompyuterlar va zarur öquv jihozlari bilan ta’minlandi. Jazo muddatini ötayotgan şaxslar orasidan oçiq va şaffof imtihonlar asosida saralab olingan 30 nafar iqtidorli yoş maşğulotlarga jalb etildi. Malakali mutaxassis va pedagoglar tomonidan ularga dasturlaş, veb-dizayn, kompyuter muhandisligi kabi mehnat bozorida talab yuqori bölgan yönalişlar hamda xorijiy tillar örgatilmoqda.

– Loyihaning eng muhim jihatlaridan biri şundaki, ta’limni muvaffaqiyatli tamomlagan yoşlarning har biriga respublika miqyosida tan olinadigan malakaviy sertifikat beriladi, – deydi manzil-koloniyaning tarbiyaviy işlar bölinmasi boşliği, kapitan Nodirbek Norov. – Bu hujjat olingan bilim va egallangan kasbning amaliy qiymatini oşirib, yoşlarning kelgusida mehnat faoliyatini boşlaşi, öz qobiliyatini namoyon etişi va jamiyatda munosib örin egallaşiga xizmat qiladi.

Şuningdek, muassasada tikuvçilik, duradgorlik, payvandlaş, novvoylik, sartaroşlik, parrandaçilik, çorvaçilik hamda issiqxona xöjaligi kabi an’anaviy kasb-hunarlar böyiça ham örgatiladi.

– Bu yerda zamonaviy kasblarni örganib, yangi bilimlarga ega böliş asnosida kelajakka bölgan işonçim ham ortmoqda, – deydi Javohir Tojiyev. – Yaratilgan şaroitlar va ustozlarimizning mehnatidan minnatdorman. Eng muhimi, uşbu loyiha bizga öz ustimizda işlab, jamiyatda öz örnimizni topişga yordam beradi.

Bir insonning hayotini özgartiriş – bir oila, bir avlod va butun jamiyat kelajagiga ta’sir körsatadi. Çunki insonga berilgan har bir imkoniyat – istiqbol uçun berilgan imkoniyatdir.

Feruza
RAHMONQULOVA,
öz muxbirimiz.
Surxondaryo viloyati.

Halollikni şior qilgan xodimlar

ENG MUHIM MEZONLARDAN BIRI

Huquqni muhofaza qiluvçi organlar faoliyatida qonun ustuvorligi, adolat va halollik eng muhim mezonlardan hisoblanadi. Çunki fuqarolarning işonçi, avvalo, öz burçiga sadoqat bilan yondaşadigan, har qanday bosim va manfaatlardan ustun turadigan xodimlar orqali şakllanadi. Kattaqörğon tumani IIB huzuridagi TB katta tergovçisi, kapitan Ahmad Qarşiyev buni yurakdan his etadi.



Uning uçun har bir masala va vaziyatda şaxsiy manfaatlar emas, balki umumiy manfaat va adolatni qaror toptiriş birinçi örinda turadi. Şuning uçun qonunçilik normalariga muvofiq qaror qabul qiladi. Murakkab vaziyatlarda yoki ziddiyatli holatlarda heç qaçon yuzaki ma'lumotlar bilan çeklanmaydi, aniq dalillarga asoslanadi. Doimo qonunçilikdagi yangiliklarni örganib, amaliyotda qöllaydi.

Quyidagi holat buning yana bir yaqqol misoli böldi. 2026-yilning 22-aprel kuni Kattaqörğon tumanida ötkazilgan tezkor tadbir çoğida "Qöştepa" MFYda yaşovçi fuqaro Boynazar Karimboyev (ism-şarifi özgartirildi) yaşaş uyida fohişaxona taşkil etişga harakat qilgani aniqlandi. Aşyoviy dalil sifatida 1 mln söm miqdoridagi pullar hujjatlaştirib olindi.

Uşbu holat yuzasidan töplangan hujjatlar böyiça tergovga qadar tekşiriş harakatlari olib borilayotganda, Boynazar Karimboyev tuman IIB huzuridagi TB katta tergovçisi, kapitan Ahmad Qarşiyevga işni "bosdi-bosdi" qiliş, töplangan hujjatlar böyiça qonuniy çora körmaslik evaziga 10 mln söm miqdorida pullarni pora tariqasida taklif etadi. Kapitan Ahmad Qarşiyev unga uşbu harakatlari jinoyat ekanligini tuşuntiradi. Ammo fuqaro öz niyatidan qaytmaydi. Şundan söng kapitan A. Qarşiyev viloyat IIB boşliğiga bildirgi bilan murojaat qildi.

Ötkazilgan tezkor tadbir davomida B.Karimboyev A.Qarşiyevning xizmat xonasida unga 8 mln söm miqdoridagi pullarni pora tariqasida berayotgan vaqtida IIV ŞXBB Samarqand viloyati böyiça boşqarmasi mas'ul xodimlari tomonidan uşlangan. Mazkur holat yuzasidan Kattaqörğon tumani IIB huzuridagi Tergov bölimi tomonidan fuqaro Boynazar Karimboyevga nisbatan jinoyat işi qözğatilgan.

Kapitan Ahmad Qarşiyev uçun şaxsiy manfaat emas, balki adolatni qaror toptiriş, haqiqatni aniqlaş va qonun talablariga amal qiliş birinçi örinda turdi. Xodimning bu harakati burçga sodiqlik va halollik namunasi böldi.

Umida MAMADALIYEVA,
öz muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

Aqlli kömakçilar

SODIQ HAMROH

(Davomi. Boşlanishi 1-betda.)

«Leonard» oddiy ot emas. U insonlarga örgangan, ziyrakligi, itoatkorligi va özига xos fe'l-atvori bilan ajralib turadi. Ayniqsa, J. Turdiyev bilan örtasidagi yaqinlik kişini hayratga soladi.

Bunday uyğunlik öz-özidan paydo bölmaydi. Uning zamirida sabr, mehr, muntazam maşğulotlar va jonivorning tabiatini anglaş yotadi. Otni boşqariş uçun jilovni mahkam uşlaşning özi kifoya emas, uning işonçini qozoniş ham zarur.

Turli tadbirlarda «Leonard»ning harakatlarini kuzatgan tomoşabinlar, ayniqsa, bolalar otning ziyrakligi va itoatkorligidan zavqlanişadi. Otning odamlar orasida özini erkin tutişi, körsatmalarga javob qaytarişi va egasiga bölgan işonçi iliq taassurot uyğotadi.

Bir qaraşda oddiy tuyulgan şu harakatlar ortida katta mehnat mujassam. Leonard Jörabekning ovozini taniydi, işoralariga e'tibor qaratadi. Göyo ular örtasida faqat özlariga tuşunarli bir til bordek. Bu tilning nomi – işonç.

Içki işlar organlarida xizmat qiliş xodimdan huşyorlik, mas'uliyat va qat'iyat talab etadi. Ot bilan işlaş esa bu fazilatlarga qöşimça ravişda sabr-toqat, sezgirlik va jonivorga mehr bilan munosabatda bölişni taqozo etadi.

Jörabek Turdiyev uçun Leonard şunçaki xizmatda foydalaniladigan ot emas, özига xos fe'l-atvorga ega, e'tibor va ğamxörlikka muhtoj hamrohdir.

Inson va ot örtasidagi döstlik qadimdan jasorat, sadoqat hamda hamjihatlik ramzi bölib kelgan. Ajdodlarimiz otni şunçaki ulov emas, balki oğir damlarda suyanç, uzoq yöllarda hamroh deb bilgan.

Kiçik serjant Jörabek Turdiyev va «Leonard»ning özaro munosabatini kuzatar ekansiz, bir haqiqatga amin bölasiz: çinakam işonç uçun har doim ham söz kerak emas. Ba'zan bir nigohning özi yetarli. Ba'zida esa bittagina işora butun bir suhbatning örnini bosadi.

Leonard gapirmaydi, ammo tuşunadi. Jörabek esa uning tilini biladi. Ularni birlaştirib turgan asosiy omillar mehr, sabr va özaro işonçdir.

Nilufar JABBOROVA,
öz muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

Dil izhori

Har bir ota-ona uçun farzandining kamolini köriş, – eng katta baxt. Men bugun ana şunday mamnunlik tuyğulari oğuşidaman. Öğlim Anvar Ergaşevning xizmatdagi faoliyati va sport maydonlaridagi ğalabalari men uçun yillar davomida kutilgan sabr, çekilgan zahmat va bildirilgan işonçning şirin mevasidir.

ĞALABALAR TASODIF EMAS

Anvarbek tört öğlimning uçinçisi. U 4-sinfda öqiyotganida otasi oğir kasallik tufayli vafot etdi. Öğlim hali maktabga bormasdan kuraşga qiziqişi baland edi va Şarq yakkakuraşlari böyiça sport tögaragiga qatnay boşlagandi. Ba'zida unga: «Qöy, bolam, hozirça imkonim yöq, senga pul topib bera olmayman», derdim. Lekin u orzusidan voz keçmasdi. Kundalik yumuşlarga çiqib bölsa-da, öz maşğulotlari uçun pul töplardi. Uning tirişqoqligi sportni hayot tarziga aylantirdi. Maktabni tugatib, Jizzax davlat pedagogika institutining jismoniy tarbiya fakultetiga öqişga kirdi. Bu ham uning öz kuçi bilan erişgan dastlabki katta yutuqlaridan biri edi.



2023-yil aprel oyida Jizzax viloyati IIB TVBSO katta mutaxassisi sifatida xizmatga qabul qilindi.

Eng quvonarlisi, endi u aka-ukalariga suyanç va homiy. Bir vaqtlar sport maşğulotlariga pul topiş uçun kundalik işlarga çiqqan bola bugun yaqinlariga yordam bera oladigan, mas'uliyatni öz zimmasiga olayotgan yigit bölib ulğaydi. Turli sport musobaqalarida iştirok etib, köplab ğalabalarni qölga kiritdi. Ayniqsa, yaqinda Turkiyada qöl jangi böyiça ötkazilgan Jahon kubogida 57 kg vazn toifasida ğalaba qozongani butun oilamiz uçun unutilmas voqea böldi.

Albatta, insonning kamol topişida uning şaxsiy intilişi muhim. Ammo bu yölda uning atrofidagi muhit, ustozlari, rahbarlari va hamkasblarining qöllab-quvvatlaşi ham beqiyos ahamiyatga ega. Uni qöllab-quvvatlagan, zarur paytda maslahat va yöl-yöriq körsatgan ustozlari va hamkasblariga çin qalbimdan minnatdorlik bildiraman.

Sayyora SATTOROVA,
serjant Anvarbek Ergaşevning onasi.

Jizzax viloyati.

BEDARAK YÖQOLGAN



Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani prokuraturasi tomonidan Termiz şahar «Yulduz» mahallasida yaşagan, 2024-yilda tuğilgan **Zubayr Sardor öğli Salimov** qidirilmoqda. U 2026-yil 26-aprel kuni «Sangardak» mahallasida soat 16:20 lar atrofida bedarak yöqolgan.

Belgilari: böyi taxminan 65–70 sm, soçlari siyrak, qora rangda, qoşlari qora, yuzi va közlari dumaloq körinişda.

Kiyimlari: egnida oq yengi uzun yoqasiz futbolka, sariq rangli bolalar şalvari, oyöğida kök rangli rezina şippak bölgan.

Bedarak yöqolgan Zubayr Sardor öğli Salimov haqida biror ma'lumotga ega fuqarolardan bu haqda (+998) 99 783-08-28 raqamiga qönğiroq qilişlarini yoki yaqin oradagi Içki işlar organlariga xabar berişlarini söraymiz.

Ma’naviyat va ma’rifat darsi

OTAŞIN ŞOIR, TARJIMON VA DRAMATURG

Betakror iste’dodi, noyob qobiliyati bilan ijod olamiga momaguldurakdek jarang soçib kirib kelgan qalam sohiblari haqida söz ketganda, «u adabiyot osmonida çaqnagan çaqmoq edi» degan fikr aytiladi. Afsuski, bunday hollarda, har qança yolqinlanmasin, çaqmoqning umri qisqa ekanini xayoldan faromuş qilamiz. Bunga hassos şoir, mohir mutarjim va donği hamon tillarda doston bölgan dramalar muallifi Usmon Nosirning juda qisqa, ammo mazmunli umri yorqin misol böla oladi.

SELDAY KELGAN ILHOM

1927-yilda Usmon Nosirning «Haqiqat qalami» nomli ilk şe’ri «Yangi yöl» gazetasida bosilib çiqqanda, u hali ön beş yoşga ham tölmagan edi. Şundan söng çaqmoq şoirning yurakdan çiqib yuraklarga yöl olgan bir qator nafis şe’rlari dunyoga keldi. 1931-yilda esa fuqarolar uruşi mavzuyiga bağişlangan «Norböta» nomli dostoni «Yangi Farğona» gazetasida e’lon qilinadi.

1932-yil uning ilk şe’riy töplami «Quyoş bilan suhbat» dunyo yuzini körgaç, şoirning öz iborasi bilan aytganda, ilhomi selday toşib, bir-biridan nafis nazmiy javohirlarni hamda «Naxşon», «Nil va Rim» kabi benazir dostonlarni yaratdi. 1934-yilda «Traktorobod», 1935-yil «Yurak» va 1936-yilda «Mehrim» nomli şe’riy kitoblari naşr etiladi.

Omma e’tiboriga havola etilgan asarlari şe’riyat ixlosmandlarini hayajonga keltirganini körgan şoir öz ijodiga yanada talabçanroq bölarkan, ayni paytda, qalb qörida yetilgan şe’rlaridan faxr tuyadi:

Sen yuragimning çaşma suvi sen,
Sen közlarimning gavhar nurlari.
Sening bahongni kim sörasa, de:
«Bahom umringning bahosiga teng!»


Usmon Nosir şe’riyati heç bir ijodkornikiga öxşamagani, an’anaviy andaza-yu qoliplarga siğmagani bilan ham öziga xosdir. Ahamiyatlisi, har bir şe’rida şoirning otaşin, isyonkor ruhi sezilib turadi. Masalan, «Yurak» şe’rida

Itoat et!
Agar sendan
Vatan rozi emas bölsa,
Yoril, çaqmoqqa aylan sen,
Yoril! Mayli, tamom ölsam!..
deya xitob qiladi.
«Yana şe’rimga» sonetida esa

Şe’rim! Yana özing yaxşisan,
Boqqa kirsang, gullar şarmanda.
Bir men emas, hayot şaxsisan,
Jonim kabi yaşaysan manda.
Yuragimning dardi – naqşisan,
Qilolmayman seni heç kanda!
Öt bölurmi işqi yöq tanda?
Dardimsanki, şe’rim yaxşisan.
degan ötliğ satrlarni bitadi.

ÖZBEKONA YANGRAGAN ÖGIRMALAR

Usmon Nosir betakror şe’riy asarlar yaratişdan taşqari, adabiy tarjima bilan ham şuğullangan. Xususan, Nikolay Dobrolyubovning «Haqiqiy



kun qaçon keladi?» nomli salmoqli asari, V. Kirşonning «Uluğ kun» dramasini hamda jahon adabiyotining yirik şoirlaridan bölmiş Geyne, Gyote, Bayron şe’rlaridan ham tarjimalar qildi. Ayniqsa, Aleksandr Puşkinning «Boğçasaroy fontani», Mixail Lermontovning «Iblis» kabi jahoniy dovruq taratgan dostonlarni özbek tiliga mahorat bilan ögirdi.

Usmon Nosir Puşkinni ham, Lermontovni ham ayriça bir muhabbat bilan sevardi. Tadbirlarda va turli yiğinlarda ularning eng sara va maşhur şe’rlarini yoddan öqib, köpçilikni hayrat barmoğini tişlaşga majbur qilardi. Şunday bölsa-da, «Boğçasaroy fontani»ni özbek tiliga ögirişdan oldin Puşkin şe’riyatining ruhini ança tasavvur qilgan şoir dostonning yaratiliş tarixi, uning badiiy şakliy xususiyatlarini çuqur örgandi. Natijada Puşkin asari ruhini saqlab qolgan holda ögirilgan quyma satrlar xuddi özbek tilida yozilgandek ravon öqiladi. Şuning uçun ham öz davrining yetuk şoiri bölgan Çölpon «U asl nusxadan ham ötkazib yuboribdi» deya Usmon Nosirni qutlagan edi.

Agar şoir Puşkin dostonini davlat buyurtmasi asosida tarjima qilgan bölsa, Lermontovning maşhur «Iblis» asarini qalb amri bilan özbekona gapirtirişga tutindi. Ögirma juda qisqa muddatda amalga oşirilganiga qaramay, u özbek tarjima san’atida katta voqelik böldi. Zero, Usmon Nosir Puşkin va Lermontov kabi jahon adabiyotining uluğ namoyandalari asarlarini ularning mazmun va jozibasiga şikast yetkazmasdan turib, boşqa tilga ögiriş mumkin emas, degan aqidaga birinçilardan bölib zarba berdi.

SAHNAGA SIĞMAGAN SATRLAR

Usmon Nosir özini nafaqat iste’dodli şoir, balki dramaturg sifatida ham namoyon etadi. Dramaturgik asarlari bilan keng jamoatçilikni hayratda qoldirgan vaqtda uning yoşi bor-yöği 18 da bölgan. Xususan, «Nazirjon Xalilov» dramasini yaratganda ayni şu yoşda edi. Bir yildan söng esa «Zafar», «Ğalaba» kabi sahna asarlari paydo bölgan. Bular yoş özbek dramaturgiyasida özgaça hodisa bölib, öz davrining eng dolzarb mavzularini aks ettirgan.

Uning «Duşman» (1931), «Sönggi kun» (1932), «Atlas» (1935) pyesalari Qöqon teatrida sahnalaştirilgan. Natijada otaşin şoirning otaş yuragidan otilib çiqqan quyma satrlar teatr sahnalaridan taşqariga çiqib, minglab yuraklarni larzaga keltirgan.

Umuman olganda, Usmon Nosir 6–7 yil qizğin ijod qildi. Şu qisqa davr içida u beşta şe’rlar töplami va ikki doston hamda tört drama yaratdi. Şuning uçun ham – özbek adabiyoti tarixida birinçi va oxirgi marta – 1937-yilning 27-yanvar kuni şoir adabiy faoliyatining 10 yillik yubileyi keng nişonlangan. Biroq bayram tadbiridan yarim yil ötib, Yozuvçilar uyuşmasida yoş şoirning «xulq-atvori» muhokama qilingan majlis bölib ötgan. Yiğilişdan ikki kun ötib, 14-iyul kuni endigina 24 yoşga tölgan Usmon Nosir Yozuvçilar uyuşmasi a’zoligidan öçirilgan va hibsga olingan. Maş’um «uçlik»ning qarori bilan ön yilga mahkum etilib, umrining va ijodining eng gullagan davrini sovuq ölkalardagi lagerlarda ötkazgan. Söngsiz qiynoqlar va oğir xastalik tufayli 1944-yil 9-martda vafot etgan.

SÖNGSÖZ ÖRNIDA

Ming taassuf, buyuk qalam sohiblari tomonidan «Şarq Puşkini», «Özbeklarning Lermontovi» degan yuksak sifatlaşlar bilan şaraflangan milliy şe’riyatimiz osmonidagi eng yorqin yulduz juda erta söndi. Taskin şuki, bor-yöği öttiz ikki yil yaşagan şoirning haqiqiy umri uning yoniq yurak bilan yozilgan şe’rlarida, özbekona gapirgan ögirmalari, betakror iste’dodini bor böyi bilan namoyon etgan doston va dramalarida davom etmoqda.

Şoirning «Ming yillardan keyin ham, Unutmas meni boğim. Şe’rlarim yangrab qolur…Bir umrga ölmayman» degan başoratomuz sözlari bizning kunlarimizga kelib, ayni haqiqatga aylandi. Prezidentimizning 2022-yil 10-fevraldagi «Otaşin şoir, tarjimon va dramaturg Usmon Nosir tavalludining 110 yilligini keng nişonlaş töğrisida»gi qaroriga köra, şoir hayoti va faoliyatini, xususan, uning qatağon davrida keçgan yillarini örganiş, hozirga qadar noma’lum bölib kelayotgan qölyozma asarlarining taqdiri haqida ma’lumotlar töplaş maqsadida işçi guruh tuzilib, uning Içki işlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, şuningdek, Rossiyadagi tegişli arxiv materiallari bilan tanişişi uçun şaroit yaratildi.

Namangan şahrida Usmon Nosir haykali örnatilib, Toşkent va Namangan şaharlaridagi köçalarga Usmon Nosir nomi berildi. Har yili umumiy örta ta’lim muassasalari, ijod maktablari öquvçilari örtasida Usmon Nosir hayoti va ijodiga bağişlangan «Unutmas meni boğim» mavzuyida inşolar tanlovi ötkaziş esa yaxşi bir an’anaga aylandi.

Temir QURBON,
filologiya fanlari nomzodi.

Ma’naviyat va ma’rifat darsini videomaterial tarzida köriş uçun QR-koddan foydalaning.

Qoraqalpoq tilidagi matn.

Rus tilidagi matn.

Minnatdorlik

INSON QADRIN ANGLATGAN TUN...

Hayot ekan, bir neça soatdan keyin boşimizga nima tuşişini ham bilmas ekanmiz...

Tuşdan keyin vujudimda boşlangan oğriq keçga borib harakatlanişga ham imkon bermaydigan darajaga yetdi. 34 yoşimda ilk bor operatsiya stoliga yotişga töğri keldi...

Soat tungi 00:00. Içki işlar vazirligi Gospitalida tungi sukunat. Biroq bir bemorning oğriği bu sukunatni buzdi. Navbatçilikdagi şifokor xodimlar meni kutib olişdi. Tekşiruv, tayyorgarlik, operatsiya... Jamoa işga kirişdi. Kasb bayrami bölişiga qaramay, ular yana xizmatda edilar.

Operatsiya stolida şiftga tikilib yotar ekanman, yaqinlarim, orzularim va rejalarim xayolimdan ötdi. Narkoz oldidan kişi nimalarni öylamaydi deysiz... Şunda yana bir bor angladim: insonning borliği, rejalari va orzu-umidlari soğliğiga boğliq ekan. Salomatlik bölmasa, qolgan ne'matlarning birortasi tatimaydi!

Men içki işlar organlari xodimiman. Bugun şu tizimning tibbiy xizmat imkoniyatlari, yaratilgan şaroitlari va ijtimoiy himoyasini öz boşimdan ötkazdim. Tasavvur qilyapsizmi, birgina xodimning salomatligi ortida qançalar katta tizim, mas'uliyat va insonlar mehnati turibdi? Avvalo, davlat rahbari tomonidan davlat siyosati darajasida yölga qöyilgan ijtimoiy himoya, qolaversa uni amalda ta'minlanayotgani natijasida inson öz vaqtida tibbiy yordam olyapti. Mana inson qadri! Mana xodim qadri!



Oxunjon MUSTAFOYEV, katta leytenant.

Oq xalatli insonlar mehnatining naqadar buyukligini bugun yana bir bor his qildim! Ular uçun tun bilan kunning, bayram bilan oddiy kunning farqi qolmaydigan lahzalar bor. Birovning dardi ularning taşvişiga, soğayişi esa quvonçiga aylanadi. Bu – inson hayoti oldidagi ulkan mas'uliyat, qasamyodga sodiqlik, fidokorlik va vijdon işi!

Prezidentimiz soha xodimlari kuni munosabati bilan tabriklarida har bir inson öz vaqtida sifatli va malakali tibbiy yordam olişi muhimligini ta'kidladilar. Bugun şuni öz boşimdan ötkazib, yanada teranroq angladim. Qanday qilib şunday yurtni sevmaslik, uning insonlaridan faxrlanmaslik, şu zaminda yaşayotganingdan ğururlanmaslik mumkin?! Vatan dardingga şerik böladigan, qiyin kuningda yoningda turadigan, hayoting va qadringni asraydigan insonlar hamdir.

Aziz tibbiyot xodimlari! Insonlar umrini uzaytirişdek şarafli vazifangizda kuç-quvvat va matonat yor bölsin. Özingiz ham soğ-omon böling.

...Uşbu tun menga soğliq bilan birga inson qadri naqadar muhimligini ham anglatdi.

Xalqaro hamkorlik

Har yili 15-noyabrda dunyo miqyosida Transmilliy uyuşgan jinoyatçilikning barça şakllarining oldini oliş va ularga qarşi kuraşiş xalqaro kuni keng nişonlanadi. BMT Boş Assambleyasining 2024-yil mart oyidagi rezolyutsiya asosida ta'sis etilgan uşbu sana xalqaro hamkorlikni kuçaytiriş, qonun ustuvorligini ta'minlaş hamda transçegaraviy jinoiy tuzilmalar keltirib çiqaradigan tahdidlar haqida xabardorlikni oşirişga qaratilgan.

GLOBAL TAHDIDLAR VA MILLATLARARO HAMJIHATLIK

Bugungi kunda uyuşgan jinoiy guruhlar öz ta'sir doirasini kengaytiriş maqsadida raqamli texnologiyalar va virtual aktivlardan ham keng foydalanmoqda. Transçegaraviy sindikatlarning asosiy maqsadi noqonuniy boylik orttiriş bölib, jinoyatçilar, jabrlanuvçilar, guvohlar va yaşirin mablağlar turli davlatlar hududida joylaşgani sababli, heç bir mamlakat bu tahdidlarga yolğiz özi qarşi tura olmaydi.

Mintaqaning geografik joylaşuvi Özbekistonni Tojikiston va Qirğiziston orqali Rossiya hamda Yevropaga yöl olgan geroin va kannabis moddalari uçun tranzit hududga aylantirgan. Bunga qöşimça ravişda sintetik narkotiklar xavfi tobora kuçayib bormoqda. Buning ustiga kibermakondagi firibgarliklar, davlat va xususiy infratuzilmalarga qaratilgan tovlamaçilik dasturlari hamda özini «bank xavfsizlik xizmati» xodimi deb taniştirib, fuqarolarning plastik kartalaridagi mablağlarini ömarayotgan virtual jinoyatçilar tahdidi qöşilmoqda.



Ana şunday murakkab şaroitda Özbekiston Respublikasi IIV tizimida uyuşgan jinoyatçilikka qarşi kuraşiş böyiça alohida xizmatning taşkil etilişi zamon talabiga munosib amaliy javob böldi. Uşbu ixtisoslaşgan tuzilma jinoiy guruhlarni, ularning homiylari va transçegaraviy aloqalarini ildizi bilan yöq qilişga qaratilgan yaxlit tezkor tizimni şakllantirmoqda. Bundan taşqari, kiberjinoyatçilik va iqtisodiy huquqbuzarliklarga qarşi kuraşuvçi bölinmalar zamonaviy tahliliy dasturlar bilan ta'minlanib, kriptovalyuta va virtual aktivlar orqali amalga oşirilayotgan şubhali operatsiyalarni tezkorlik bilan töxtatiş salohiyatini oşirmoqda.

Davlatimiz BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatçilik böyiça boşqarmasi (UNODC) bilan hamkorlikda Özbekiston tarixida ilk bor uyuşgan jinoyatçilikka qarşi kuraşiş böyiça Milliy strategiyani işlab çiqişga kirişgani uşbu sohadagi uzoq muddatli siyosat poydevorini yaratmoqda.

Biroq transmilliy jinoyatçilikka qarşi faqat mamlakat içkarisida kuraşiş bilan çeklanib bölmaydi. Mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlaş va ilğor tajriba almaşiş maqsadida Özbekiston nufuzli xalqaro dasturlarda, jumladan, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik taşkiloti (YEXHT) Kotibiyatining Transmilliy tahdidlar departamenti tomonidan amalga oşirilayotgan «SENTINEL» loyihasida faol iştirok etmoqda.

Ba'zi bir mamlakatlardagi murakkab vaziyat va jinoiy tarmoqlarning özgaruvçanligini inobatga olgan holda, mazkur taşabbus doirasida mutaxassislar uç yönalişda puxta tayyorlanmoqda. Birinçidan, uyuşgan jinoyatlarni tizimli tergov qiliş va aşyoviy dalillar bilan işlaş könikmalari mustahkamlanmoqda. Ikkinçidan, konspirativ jinoiy tuzilmalarni foş etişda zamonaviy maxsus tergov usullari örgatilmoqda. Uçinçidan, inson huquqlari va kasbiy axloq meyorlariga rioya etgan holda tergov suhbatlarini ötkaziş hamda körsatuvlarni tahlil qiliş amaliyoti şakllantirilmoqda. Xususan, Anqara şahrida Özbekiston, Qozoğiston va Tojikiston tezkor xodimlari uçun taşkil etilgan qöşma maşğulotlar hamda INTERPOL va CARICC kabi xalqaro tuzilmalar doirasidagi hamkorlik mintaqa tergovçilari örtasida işonçli aloqa örnatişda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Şu bilan birga, oldimizda hali öz yeçimini kutayotgan jiddiy muammolar mavjud. Korrupsiyaga qarşi murosasiz kuraşişni yangi bosqiçga olib çiqiş, bojxona va çegara nazorati mexanizmlarini töliq raqamlaştiriş hamda jabrlanuvçi va guvohlarni himoya qiliş tizimini kuçaytiriş dolzarb vazifa bölib qolmoqda.

Şodiya ISMOILOVA,
Inson huquqlari böyiça Özbekiston Respublikasi Milliy markazi yetakçi mutaxassisi.

Yuksak mukofot sohiblari

XAYRLI XIZMATNING TOTLI MEVASI



Kitob tumanidagi “Boğbon” mahallasi profilaktika inspektori, mayor Suyar Xudoyqulov öz vazifasini bajarişda mahalla faollari, nuroniylar, yoşlar va keng jamoatçilik bilan hamkorlik qiliş muhimligini yaxşi tuşunadi. Şu bois bu masalaga jiddiy e’tibor qaratadi.



U joriy yilning ötgan davrida 200 dan ortiq ma’muriy bayonnomalar tuzgan bölib, şundan 4 tasi ov qurolini saqlaş qoidalarini buziş bilan boğliq. Şuningdek, 126 nafardan ortiq fuqarolar murojaatlari yuzasidan tegişli tekşiruvlar ötkazilib, qonuniy qarorlar qabul qilinişi ta’minlandi.

Ötgan yil iyul oyida fuqaro X.E.ning tomorqasidan noma’lum şaxslar bir boş molini öğirlab ketgani haqida “102” xizmatiga xabar tuşadi. Holat yuzasidan dastlabki suriştiruv işlarini olib borgan profilaktika inspektori hududga örnatilgan kuzatuv kameralari orqali öğrilarning iziga tuşadi. Ma’lum bölişiça, mahallani aylanib yurgan yakkaboğlik ikki fuqaro darvozaga osilgan qulfni körib, uyda heç kim yöqligiga işonç hosil qilgan va tomorqadagi qoramolni olib çiqib ketgan. Tezkor harakatlar natijasida ularning boşqa hududlarda sodir etgan jinoyatlari ham foş qilindi.

Mazkur holat sababli “Boğbon” mahalla fuqarolar yiğini jinoyatçilik darajasi böyiça “sariq” toifaga ötib qoldi. Ayni paytda profilaktika inspektori “yaşil” toifaga qaytariş uçun profilaktik işlarni yanada kuçaytirib, jinoyatçilikka sabab bölayotgan omillarni bartaraf etiş çoralarini körmoqda. Bu borada mahalla raisi, hokim yordamçisi, yoşlar yetakçisi, xotin-qizlar faoli, nuroniylar va mas’ul taşkilotlar vakillari bilan birgalikda aholi örtasida huquqiy tarğibot işlarini kuçaytirib, jinoyatçilikka nisbatan murosasiz munosabatni şakllantirmoqda.

Mayor Suyar Xudoyqulovning fidokorona xizmati davlatimiz tomonidan munosib baholanib, Prezident farmoniga binoan u “Şuhrat” medali bilan taqdirlandi.

– Bu mukofot nafaqat menga, balki voha içki işlar organlari xodimlarining xizmatiga berilgan yuksak e’tibor va e’tirofdir, – deydi mayor S.Xudoyqulov. – Bu e’tibordan ruhlanib, bundan buyon ham yurt tinçligi yölida sidqidildan xizmat qilaman.

Sodiq RAHIMOV,
öz muxbirimiz.

Qaşqadaryo viloyati.

FIDOYILIK BEE’TIBOR QOLMAYDI



Namangan viloyatining Çust tumani IIB Jamoat xavfsizligi xizmati Huquqbuzarliklar profilaktikasi bölinmasi 1-son mahalla huquq-tartibot maskani profilaktika boş inspektori, podpolkovnik Elmurod Sulaymonov salkam 20 yildan buyon fuqarolar xavfsizligi va qonun ustuvorligini ta’minlaş yölida fidoyilik bilan xizmat qilib kelmoqda.

Lavhamiz qahramoni joriy yilning ötgan davrida jamoat joylarida spirtli içimlik iste’mol qilgan 20 nafar, mayda bezorilik sodir etgan 12 nafar hamda boşqa turdagi huquqbuzarliklarga yöl qöygan 188 nafar şaxsga nisbatan qonuniy çoralar kördi. Şuningdek, 172 nafar fuqaroning murojaati örganilib, ijobiy hal etildi. Bundan taşqari, profilaktik hisobda turgan 25 nafar şaxs bilan ötkazilgan tuşuntiriş işlari natijasida ular tomonidan takroran jinoyat va ma’muriy huquqbuzarliklar sodir etilişining oldi olindi.



Mahallada jamoatçilik nazorat maskanining uzluksiz faoliyati hamda tungi patrullik yölga qöyilgan. Bu işlar fuqarolarning huşyorligini oşiriş, xavfsizlikni ta’minlaş va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olişda muhim örin tutadi. Yurtimizda fidoyilik heç qaçon bee’tibor qolmaydi. Qahramonimiz kasb bayrami arafasida “Sodiq xizmatlari uçun” medali bilan taqdirlangani ham fikrimizning tasdiğidir.

– Bu mukofot menga kelgusida ham zimmamdagi vazifalarni vijdonan bajarib, el-yurt osoyiştaligini ta’minlaşga munosib hissa qöşişimga kuç bağişlaydi, – deydi podpolkovnik Elmurod Sulaymonov.

Darhaqiqat, Vatanga muhabbat, burçga sadoqat, qonunga hurmat va xalq manfaatlariga xizmat qilişning haqiqiy qiymati insonlar qalbidagi işonç, mahallalardagi osoyiştalik va el duosida namoyon böladi.


Jahongir TÖXTASINOV,
öz muxbirimiz.


Namangan viloyati.

Bilib qöygan yaxşi

INTERNETDA HAQORAT QILMANG!

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar va turli internet platformalarida öz fikrini bildiriş jarayonida boşqa erkin şaxsning şa’ni va qadr-qimmatini kamsitiş holatlari ham uçrab turibdi. Bu esa ayrim kontent yozuvçi yoki ularga munosabat bildiruvçi fuqarolarning qonunçilikdan yetarliça xabardor emas-





liklarini körsatadi. Agarda ular internet orqali bildirilgan haqorat ham qonunçilikda belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bölişi mumkinligini bilganida, öylaymizki bunday yöl tutmagan bölişar edi.

Çunki, Özbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 140-moddasiga muvofiq, şaxsning şa’ni va qadr-qimmatini beodoblik bilan qasddan tahqirlaş haqorat qiliş hisoblanadi. Şu bois, bunday harakatlar uçun ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki internet axborot tarmoğida joylaştiriş orqali haqorat qilişga bazaviy hisoblaş miqdorining 200 baravaridan 400 baravarigaça jarima, 240 soatdan 300 soatgaça majburiy jamoat işlariga jalb etiş yoki 1 yildan 2 yilgaça axloq tuzatiş işlari jazosi belgilangan.

Yana bir muhim jihat şundaki, internetda haqorat qiliş uçun jinoiy javobgarlik belgilangan holatda, avval ma’muriy jazoga tortilgan bölişi talab etilmaydi. Ya’ni, birinçi marta sodir etilgan qilmiş ham Jinoyat kodeksining 140-moddasi ikkinçi qismi böyiça baholanişi mumkin.

Xöja Axmed MATYAKUBOV,
IIV Yuridik ta’minlaş boşqarmasi yetakçi yuriskonsulti, kapitan.

POSTDA
НА ПОСТУ • AT THE POST

Fidoyi xodimlar

VATAN VA ILMGA SADOQAT

Faqat bir soha bilan çegaralanib qolmasdan, yuksak ilmiy salohiyati va fidoyiligi bilan örnak bölayotgan yurtdoşlarimiz oramizda köp. Ana şunday şarafli va maşaqqatli yölni tanlagan insonlardan biri – IIV Maxsus operatsiyalarni muvofiqlaştiriş boşqarmasi maxsus tayyorgarlik öquv markazi katta instruktor-öqituvçisi, podpolkovnik Yigitali Eşmurzayevdir. U ayni damda mas'uliyatli sohada sobitqadamlik bilan xizmat olib boriş barobarida, ilm-fan çöqqilarini zabt etayotgan iste'dodli olimlardan biridir.



Inson kamolotida tarbiya öçoği bölgan oilaning, ilm-ma'rifat yölboşçisi sifatida ustozlarning ögiti alohida örin tutadi. Lavhamiz qahramonining otasi – tajribali muhandis Şokir aka farzandlarida aniq fanlar va mehnatsevarlikka muhabbat uyğotgan bölsa, onasi – pedagog Dilbar opa tarix fani öqituvçisi sifatida ularning qalbiga Vataniga muhabbat va ma'naviyat uruğlarini qadadi.

– Mohir jurnalist va yetuk publitsist Mahmud Sa'diy onamning otalari, ya'ni bobom bölardi, – deydi podpolkovnik Yigitali Eşmurzayev. – Bugun öylasam, ular bilan ötkazgan vaqtimiz, uzoq davom etgan suhbatlarimiz bebaho ma'rifat saboği bölgan ekan. Çunki bobom bizga juda mehribonlik bilan qiziqqan mavzuyimizni erinmasdan, mukammal tarzda tuşuntirib, göyoki bilimning mağzini çaqib berardi. Menda tabiiy fanlarga qiziqiş bobom tufayli uyğongan. Aniqroği, menga kimyo ensiklopediyasini sovğa qilişgan. Men ungaça huquqşunos bölaman, deya şu yönalişga alohida e'tibor qaratib öqirdim. Ammo kimyo ensiklopediyasi qölimga tuşdi-yu, qiziqişlarim butunlay boşqa özanga özgardi. 2000-yilda maktabni a'lo baholarga tamomlab, orzularimni röyobga çiqariş ilinjida poytaxt tomon yöl oldim. Imtihonlardan yetarliça ball töplab, Milliy universitetning kimyo fakultetiga öqişga qabul qilindim.

Lavhamiz qahramoni oliy dargohda ilm sirlarini öz sohasining fidoyilaridan örgandi. Kimyo fanlari nomzodi Nurmuhammad Turobov va kimyo fanlari doktori, professor Zulayho Sumanova uning ilm yölidagi jonkuyar ustozlari bölib, ilmiy izlanişlarda qöllab-quvvatladi. Natijada Yigitali 2004-yilda bakalavriatni, 2006-yilda esa «Analitik kimyo» mutaxassisligi böyiça magistraturani imtiyozli diplom bilan tamomladi. Öz bağriga çeksiz sir-sinoatni yaşirgan tabiat uni yanada çuqurroq izlanişga undadi. 2009-yilda aspiranturani bitirib, nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi va kimyo fanlari nomzodi ilmiy darajasini oldi.



Podpolkovnik Yigitali Eşmurzayev (çapda) xizmat jarayonida.

Ilk mehnat faoliyatini Milliy universitetning kimyo fakultetida muhandis sifatida boşladi. Öz kasbiga sadoqati va ilmiy salohiyati tufayli 2009–2012-yillarda laboratoriya mudiri va katta öqituvçi lavozimlarida yoşlarga ilm sirlarini örgatdi. Biroq Vatan oldidagi burç va mas'uliyat hissi uni boşqa bir muhim yölni tanlaşga çorladi. 2012-yilning iyun oyidan boşlab uning hayotida yangi – içki işlar organlaridagi mas'uliyatli xizmat sahifasi oçildi. Huquq-tartibot sohasiga qadam qöygan yoş xodimning professional kadr bölib yetişişida texnika fanlari nomzodi, iste'fodagi polkovnik Aziz Salimov, polkovniklar Saidkarim Alimov, Zafar Jumanov va podpolkovnik Viktor Nikolayeviçning ögit va körsatmalari muhim omil bölib xizmat qildi.



U içki işlar organlaridagi xizmati davomida ham ilmiy faoliyatini töxtatmadi. Jamoat va aholi xavfsizligini ta'minlaş, maxsus operatsiyalarni amalga oşiriş va favqulodda xavflarni bartaraf etişga oid ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Yigitali Eşmurzayev qalamiga mansub maxsus öquv qöllanmalari, kimyo sohasida darsliklar hamda sohaviy uslubiy tavsiyalar ilmiy jamoatçilik tomonidan yuqori baholandi. Şuningdek, uning taşabbusi va rahbarligida qator loyihalar amalga oşirildi, ilmiy maslahatçiligida 4 nafar şogirdi esa falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

U nafaqat ilm kişisi va öz kasbiga sadoqatli xodim, balki ma'naviy qadriyatlarga tayangan mustahkam oila sohibi, farzandlariga ğamxör otadir. Turmuş örtoği Viloyat Ergaşeva – pedagog. Oiladagi ahil-inoqlik, xotirjamlik va ilm-ma'rifatga daxldorlik hissi farzandlarning ham ong-u şuuriga singib ulgurgan. Buni oilaning tönğiçi Muborakxon kelajakda şifokor böliş niyatida tabiiy fanlarni mukammal özlaştirayotganida, Oybekjon uçuvçi bölişni közlab, şunga yaraşa şijoat bilan öqiyotganida, Imonaxon esa öqituvçi bölişdek ezgu maqsadni köngliga tukkanida yaqqol köriş mumkin.

– Men xizmatda ham, ilm yölida ham, hatto farzandlarimga ham inson bir kasbni ipidan-ignasigaça bilib, öz işining haqiqiy ustasi bölişi kerak, deya köp takrorlayman, – deydi podpolkovnik Yigitali Eşmurzayev. – Agar inson öz sohasida professional bölsa, hayotda qoqilmaydi, qayerda bölmasin, mehnati orqasidan rohat köradi. Bu sözlar özimning ham qat'iy hayotiy şiorimdir.

Podpolkovnik Y. Eşmurzayevning hayot va xizmat yöli tinimsiz izlanişlar, ezgu maqsadlar va tanlovlarga töla. Unda çinakam fidoyilik, vatanparvarlik va ilmga sadoqat yorqinlanib turadi. Faoliyatida esa professionallik, harbiylik va ilm-fan uyğunlaşgani holda, özига xos natijalar yuz oçgani uning salohiyatidan sözlab turadi.

Gulnoza TURĞUNBOYEVA,
öz muxbirimiz.
Ikrom HASANOV olgan suratlar.

MILLIY ĞURUR VA SADOQAT SABOĞI



ABDULLA AVLONIY

Sodiq kişi din va millatiga, vatan va davlatiga töğrilik ila xizmat qilub, obrö va mukofotlar olur.



AŞURALI ZOHIRIY

Qaçonki, öz tilimizni yaxşilab bilmadikmi, başqa tilni albatta durust bilmaymiz.

Institut profilaktika inspektori

FAOL VA TAŞABBUSKOR

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institutida xizmat olib borayotgan profilaktika inspektori, katta leytenant Şerzod Kamolovga talaba qizlardan biri murojaat qildi. U şaharning «Mohi-Xossa» mahallasida akasining oilasi bilan onasi birga yaşab kelayotganini, yangasi bilan örtalarida kelişmovçilik yuzaga kelgani sababli jiyanlarini köriş imkoniyatidan mahrum bölayotganini bildirdi.

Mazkur murojaat yuzasidan katta leytenant Ş. Kamolov hamkasbi, leytenant S.Abdullayev va psixologlar bilan birgalikda xonadonga bordi. Oila a'zolari bilan alohida suhbatlaşib, kelişmovçilik sabablarini atrofliça örgandi. Söng arzimagan sabablar tufayli oilaviy munosabatlar buzilayotganini tuşuntirib, ularni bir-biriga nisbatan keçirimli va bağrikeng bölişga çaqirdi. Suhbat davomida har ikki tomon ham manmanlikka berilganini anglab, murosaga kelişga qaror qildi.

Bu Buxoro şahar IIOFMB 4-son IIB profilaktika inspektori, katta leytenant Şerzod Kamolovning xizmat faoliyatidan birgina misol edi, xolos.

Lavhamiz qahramoni yoşligidan içki işlar organlari xodimi bölişni orzu qilardi. Bunga uning opasi Maqsuda Kamolovaning şu tizimda faoliyat yuritişi ham sabab bölgan – ayni paytda u Toşkent şahar IIBBda xizmat qilmoqda.

Xizmat faoliyatini voyaga yetmaganlar masalalari böyiça inspektor-psixolog lavozimidan boşlagan Şerzodning profilaktika sohasidagi layoqatini payqagan rahbariyat uni profilaktika inspektori lavozimiga ötkazdi. Intiluvçan va serğayrat xodim qisqa vaqtda ustozlari hamda hamkasblarining işonçini oqladi. Şu bois köp ötmay, hozirgi lavozimiga tayinlandi.

– Maqsadimiz – talabalar jinoyat qurboniga aylanişining oldini oliş. Şu bois kunduzgi xizmatimiz tugagaç, tungi faoliyatimiz boşlanadi, – deydi katta leytenant Ş.Kamolov. – Muddatli harbiy xizmatni ötab kelgan talabalarimiz orasidan 30 nafarini saralab, «Qalqon» guruhini taşkil qilganmiz. Ular bilan birgalikda oliygohimiz talabalar turarjoyida xavfsizlik va tinçlikni ta'minlaymiz. Yotoqxonada tayinlangan navbatçilar bilan hamkorlikda talabalarning yaşaş xonalarini örganamiz.

Profilaktika inspektorining ta'kidlaşiça, oliygoh rahbariyati tomonidan taşkil etilgan sport tögaraklari talabalarning böş vaqtlarini mazmunli ötkazişda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Şuningdek, talabalar keçki vaqt köçalarda maqsadsiz yurişlarining oldini oliş maqsadida viloyat IIB JXX PPX batalyon xodimlari bilan hamkorlikda köngiloçar maskanlarda profilaktik tadbirlar ötkazilmoqda. Bundan taşqari, ijarada yaşaydigan talabalarning ahvolidan ham muntazam xabar olib turiladi.

– Şerzodjon har bir işda faol va taşabbuskor, – deydi institut rektori, professor Şuhrat Teşayev. – U yoşlar örtasida huquqbuzarlik va jinoyatçilikning oldini oliş borasida keça-yu kunduz tinim bilmaydi. Raqamlarga murojaat qiladigan bölsak, 2024-yili talabalar örtasidagi jinoyatçilik 2023-yilgiga nisbatan 30 foizga kamaygan. Ötgan yildan buyon hozirgi kunga qadar esa oliygohimiz talabalari hamda professor-öqituvçilari örtasida jinoyat sodir etilmadi.

Katta leytenant Şerzod Kamolov singari öz kasbiga sadoqatli, taşabbuskor va fidoyi xodimlarning sa'y-harakatlari tufayli oliygohda soğlom muhit, osoyiştalik va qonuniylikni mustahkamlaşga erişilmoqda. Zero, yoşlarni turli huquqbuzarliklardan asraş hamda kelajakka işonç ruhida tarbiyalaş har bir profilaktika inspektorining nafaqat xizmat vazifasi, balki yuksak mas'uliyati hamdir.

Mirzoqul AHADOV,
öz muxbirimiz.

Buxoro viloyati.



Kuzatuv

YAXŞILIK URUĞI

Inson umrining mazmuni egallagan lavozimi yoki bosib ötgan yöllari bilan emas, hayoti davomida boşqalar qalbida qanday iz qoldirgani bilan belgilanadi. Ayniqsa, içki işlar organlari tizimida xizmat qiliş nafaqat yuksak mas'uliyat, balki insonparvarlik, fidoyilik va kasbga sadoqatni ham talab etadi.

Ana şunday ezgu fazilatlar egasi, uzoq yillar içki işlar organlari tibbiyot sohasida samarali xizmat qilgan Andijon viloyati IIB Tibbiyot bölimi poliklinikasi boşliği, podpolkovnik Dilşodbek Qöçqorov öz faoliyatini yakunlab, hayotining yangi bosqiçi – pensiya davriga qadam qöydi.



Dilşodbek Qöçqorov köp yillik xizmat faoliyati davomida samimiyligi va barçaga birdek hurmat bilan munosabatda bölişi orqali jamoada alohida hurmat qozondi. Qabuliga kelgan xodimlar, ularning oila a'zolari va faxriylarga doimo e'tibor körsatib, kömak berişga astoydil intilişi bilan hammaga örnak bölib keldi. Aslida, şifokorlik faqat kasallikni davolaşdan iborat emas. Bu – insonga umid beriş, oğir damlarda uning yonida turiş, dardini eşitib, ma'naviy dalda körsatiş hamdir.

– Men içki işlar organlari xodimining farzandiman. Marhum otamning roziligi va duosini olib uşbu sohani tanlaganman, – deydi iste'fodagi podpolkovnik D. Qöçqorov. – Bir umr padari buzrukvorimning ezgu vasiyatiga sodiq qolib xizmat qildim.

Andijon viloyati IIBda bölib ötgan ma'naviy tadbir fidoyi xodimning köp yillik faoliyati uçun jamoadoşlari tomonidan bildirilgan yuksak minnatdorlik ifodasi böldi. Unda sözga çiqqan hamkasblar qahramonimizning odamlar dardiga quloq tutiş, qiyin vaziyatlarda yelkadoş böliş kabi ezgu insoniy fazilatlarini alohida e'tirof etdilar.

Darhaqiqat, insonning xizmat muddati tugaşi mumkin, ammo uning Vatanga sadoqati, kasbiga muhabbati va odamlar qalbiga qadagan yaxşilik uruğlari mangu barhayotdir.

Dilmurod XÖJAMBERDIYEV,
Andijon viloyati IIB MMI va KBTX boşliğining örinbosari, mayor.

XALQ ROZILIGI —



Yakkasaroy tumani – poytaxtimizdagi zamonaviy qiyofasi, öziga xos infratuzilmasi bilan ajralib turadigan muhim ma’muriy-madaniy markazlardan biri sanaladi.

Hududda tinçlik-osoyiştalikni ta’minlaş hamda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini oliş tuman IIOFMB xodimlari zimmasiga alohida mas’uliyat yuklaydi.

“XODIMBAY” IŞLAŞ TIZIMI

– Xizmat samaradorligining eng muhim omili, avvalo, xizmat intizomiga rioya qilişdir, – deydi tuman IIOFMB boşliğining ma’naviy-ma’rifiy işlar böyiça örinbosari, podpolkovnik Rasuljon Maşaripov. – Bunda şaxsiy tarkib bilan “xodimbay” işlaş tizimi doirasida xodimlarning muammolarini, oilaviy şaroitini, ruhiyatini muntazam örganib borişni kundalik faoliyatimiz asosiga aylantirganmiz.


Darhaqiqat, boşqarma şaxsiy tarkibi bilan işlaş jarayonida ularni har tomonlama qöllab-quvvatlaş rahbariyatning doimiy diqqat markazida. Zero, oilasi tinç, rözğori but, salomatligi joyida bölgan xodim zimmasidagi vazifalarni sidqidildan bajaradi, yuragida munosiblik hissi bilan xizmat qiladi.

NAZARIYA VA AMALIYOT

Tuman IIOFMB HPB xotin-qizlar masalalari böyiça katta inspektori, podpolkovnik Farida Samatovaning ta’kidlaşiça, IIV Akademiyasida dual ta’lim tizimi asosida tahsil olayotgan 29 nafar kursant boşqarma sohaviy xizmat xodimlari bilan birga xizmat qilib, nazariy bilimlarini amaliyotda mustahkamlamoqda.

– Podpolkovnik Farida Samatova har bir muammoning nafaqat oqibatini, balki unga sabab bölgan omillarni ham şoşma-şoşarlikka yöl qöymay, çuqur örganib çiqişim kerakligini uqtiradi, – deydi IIV Akademiyasi 3-kurs kursanti Nafisa Toğayeva. – Ustozimning yöl-yöriq va maslahatlari nafaqat kasbiy bilim va könikmalarimni boyitişga, balki kelgusida xizmatimni benuqson bajarişimda çinakam mahorat maktabi bölmoqda.





QONUN TALABLARI ASOSIDA

– Joriy yilning ötgan davrida bölimimiz tomonidan 5437 nafar yurtdoşimizga Özbekiston Respublikasi şaxs guvohnomasi (ID karta), 6166 nafar fuqaroga esa xorijga çiqiş biometrik pasporti berildi, – deydi bölim boşliği örinbosari, kapitan Azamat Eşonquliyev. – Tumanimizda 179 ta mehmonxona, 59 ta xostel, 41 ta mehmon-uy, 29 ta yotoqxona, 20 ta moslaştirilgan xonadon va boşqa joylaştiriş vositalari mavjud. Bu jihat bizdan xorijiy davlatlar fuqarolari va fuqaroligi bölmagan şaxslarning mamlakatimizda böliş qoidalariga rioya etişlarini nazorat qilişga alohida e’tibor qaratişimizni taqozo etadi. Uşbu yönalişda tartib-qoidalarga rioya qilmaganlik holatlari böyiça joriy yilning şu davriga qadar 2688 ta ma’muriy bayonnoma rasmiylaştirilib, 11 nafar şaxs mamlakatimiz hududidan çiqarib yuborildi. Şuningdek, 5061 nafar fuqaro doimiy röyxatga olindi. Öqiş, işlaş, davolaniş hamda mehmon sifatida kelgan 6516 nafar fuqaro esa vaqtinçalik röyxatga qöyildi.

HUŞYORLIK VA QAT’IYAT BILAN

–Xizmat faoliyatimiz poytaxtimizning gavjum va diqqatga sazovor maskanlari – “Konstitutsiya boği”, “Tepa” va “Döstlik” mahallalari, Alişer Navoiy nomidagi Toşkent davlat özbek tili va adabiyoti universiteti atrofi, şuningdek, “Next” hamda “Seoul Mun” köngiloçar-savdo markazlari joylaşgan hududlarda keçadi, – deydi tuman IIOFMB PPX inspektori, safdor Tölqin Yunusov. – Uşbu manzillar yetti yoşdan yetmiş yoşgaça bölgan yurtdoşlarimiz, poytaxtimiz mehmonlari bilan doim gavjum.

– Şu bois bir navbatçilikka çiqqanimizda doimo huşyorlik bilan xizmat olib borişga harakat qilamiz, – deya suhbatga qöşiladi safdor Nurbek Pölatov. – Ayniqsa, köngiloçar maskanlar va savdo markazlarida yurtdoşlarimiz hamda xorijlik sayyohlarning xavfsizligini ta’minlaş, turli huquqbuzarliklar yoki köngilsiz holatlarning oldini oliş faoliyatimiz asosini taşkil etadi.

QUŞNING HAM UYASI BUZILMASIN



Turmuş yöllari doim bir tekis keçmaydi. Uning baland-past söqmoqlarida kutilmagan çigallig-u muammolar ham, quvonçli kunlar ham yonma-yon yuradi.

– Tumanimizdagi 21 ta mahalladagi 42 mingga yaqin oilalarda 71 ming nafardan ortiq xotin-qizlar istiqomat qiladi, – deydi tuman IIOFMB HPB xotin-qizlar masalalari böyiça katta inspektori, podpolkovnik E’tibor Qodirova. Joriy yilning 9 oyi davomida tazyiq va zöravonlikdan jabrlangan 279 nafar xotin-qizga himoya orderi berildi. Buziliş yoqasiga kelib qolgan 82 ta oila yaraştirildi. Köplab xotin-qizlarning nizolari bartaraf etildi.

– Bir yil avval oilaviy nizolar sabab nikohim bekor bölib, farzandim bilan ota uyimga qaytib kelgandim, – deydi Nilufar Abduraimova. – Öşa paytda ruhiy tuşkunlikka tuşgan, juda asabiy holatda edim. Ukam bilan oramizda tez-tez kelişmovçilik kelib çiqardi. Şu sababli oilamiz nizoli oilalar röyxatiga kiritilgan edi. Xotin-qizlar masalalari böyiça inspektor, mayor Gözal Eşonxöjayeva xonadonimizga kelib, vaziyatni atrofliça örgandi. U kişi biz bilan suhbatlaşib, huquqiy yordam beriş bilan birga, insoniy fazilatlar, mehr-oqibat hamda oğir damlarda bir-birini tuşuniş va qöllab-quvvatlaş böyiça qimmatli maslahatlar berdi. Bugun hammasi yaxşi: farzandim maktabga boryapti, özim ham işga joylaşdim. Oilamiz nizoli xonadonlar röyxatidan çiqarildi.

E’TIROF POYDEVORI

HAMKORLIK SAMARASI



– Xizmat hududim köp qavatli uylardan iborat, – deydi “Quşbegi” mahallasi profilaktika inspektori, kapitan Manon Xodiyev. – Ulardagi 1660 ta xonadonda 6120 nafar aholi istiqomat qiladi. Şuningdek, hududda oliy ta’lim muassasasi, maktab, bolalar musiqa va san’at maktabi, şahar yuqumli kasalliklar şifoxonasi, yuzlab tadbirkorlik subyektlari faoliyat yuritadi.

Jinoyatçilikni jilovlaş, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini oliş va qarşi kuraşişda mahalla raisi, iste’fodagi podpolkovnik Hakimjon Umirov hamda fuqarolar yiğini mas’ul xodimlari, faollar özaro maslahatlaşib işlayapmiz. Hududimiz ayni paytda “sariq” toifada, yil yakuniga qadar “yaşil” toifaga ötişni közlayapmiz.

YOŞLAR – E’TIBORDA



Tumandagi 202 nafar uyuşmagan yoşning 64 nafari bevosita tuman IIOFMB boşliği va uning örinbosarlariga biriktirilib, ularning muammolari yaqindan örganilmoqda.

– “Bobur” mahallasida yaşovçi Sevara Odilova (ism-şariflar özgartirildi) agressiv xulq-atvori tufayli alohida toifadagi yoşlar röyxatiga kiritilgan edi, – deydi tuman IIOFMB HPB Voyaga yetmaganlar va yoşlar profilaktikasi taşkil etiş guruhi katta inspektori, kapitan Madinabonu Oçilova. – U bilan 9 oy mobaynida mahalla yoşlar yetakçisi va boşqa mas’ullar hamkorligida profilaktik suhbatlar olib borildi. Til örganişga qiziqişi borligi aniqlanib, kursga jalb etildi. Ayni paytda xususiy taşkilotda işlayapti. Qizning xulq-atvorida sezilarli darajada yaxşi tomonga özgariş böldi. Mahalla faollari ham buni bilib, unga ijobiy tavsiyanoma berişdi. Natijada Sevara alohida toifadagi yoşlar röyxatidan çiqarildi.

KIBERPROFILAKTIKA – KUNDA KERAK

– Joriy yilning ötgan davrida fuqarolarning kiberjinoyatlardan jabrlanganlik holati böyiça 573 ta jinoyat işi qözğatilib, ularning 343 tasi böyiça qonuniy çoralar köridi, – deydi tuman IIOFMB HPB Kiberprofilaktika bölinmasi boşliği, kapitan Akmal Sidiqov. – 78 ta holat onlayn savdo platformalaridagi firibgarlik, 60 tasi soxta ilovalar orqali bank plastik kartalaridagi mablağlarni öğirlaş, 37 tasi fuqarolarning Telegram akkauntlarini zararli havolalar yordamida buzib kiriş hamda 29 tasi davlat taşkilotlari nomidan qilingan soxta qönğiroqlar orqali amalga oşirilgan.

Kiberjinoyatlarning muayyan qismi zararli manbalar orqali sodir etilayotganini inobatga olib, aholi örtasida “APK Qöriqçi” mobil ilovasi keng tarğib qilinmoqda. Natijada tuman aholisining 45 foizi (65 ming kişi) uşbu ilovaga ulandi. Şuningdek, soha xodimlari tomonidan mahallalar, ta’lim va soğliqni saqlaş muassasalari, davlat organlari, korxona-taşkilotlar, bozorlar hamda aholi gavjum maskanlarda kiberxavfsizlik böyiça muntazam profilaktik uçraşuvlar ötkazib kelinmoqda.



MAQSAD – MUROJAATLARGA ÖZ VAQTIDA TA’SIRÇAN ÇORA KÖRIŞ

– Fuqarolarning xavfsizligini ta’minlaş, ularning murojaatlariga öz vaqtida, ta’sirçan çora köriş maqsadida taşkil etilgan Tezkor boşqaruv markaziga kuniga örtaça 80–90 tagaça murojaatlar kelib tuşadi, – deydi markaz boşliği, podpolkovnik Habibulla Yakubov. – Albatta, bu murojaatlarning barçasi ham jinoyat bilan boğliq emas, ularning orasida turli maişiy muammolar, yordam yoki maslahat söraşlar ham bor. Jinoyat yoki huquqbuzarlik haqidagi xabar kelib tuşişi bilanoq tumanimizga biriktirilgan barça kuç va vositalarni jalb etgan holda, huquqbuzarlikni “issiq izida” oçişga, muammolar hal etilişiga harakat qilamiz. Joriy yilning şu davriga qadar markazimizga jami 24 mingdan ortiq murojaat kelib tuşdi va ularning har biri yuzasidan tegişli çoralar körildi.



Şu örinda ta’kidlaş joizki, şahar IIBB Situatsion markazi tomonidan boşqariladigan “Qalqon” boşqaruv tizimi orqali tumanimiz doimiy va töliq nazorat qilib turilibdi. Hozirgi kunda har bir köça, çorraha, şuningdek, aholi gavjum töplanadigan joylar töliq onlayn kuzatuv ostiga olingan. Bu, öz navbatida, qidiruvdagi şaxslarni aniqlaş, jinoyatlarni foş qilişda qöl kelmoqda. Jumladan, joriy yilning özida kelib tuşgan xabarlar asosida “Qalqon” dasturi yordamida bevosita 12 ta jinoyat “issiq izida” oçildi. Bunda hududimizda mehmonxona va xostellarning köpligi, şuningdek, çet el fuqarolari hamda turistlar oqimining yuqoriligi alohida mas’uliyat talab etadi.



XULOSA ÖRNIDA

Tuman IIOFMB sohaviy xizmat xodimlari xizmat faoliyatiga nazar solar ekanmiz, ular zimmasidagi mas’uliyatli vazifalarni sidqidildan, burçga sadoqat, jonkuyarlik va yuqori kasbiy mahorat bilan bajarayotganiga guvoh böldik. Xodimlarning öz kasbidan qoniqiş tuyişi ularning közlaridan, sözlaridan, qilayotgan işlarida yaqqol aks etmoqda. Eng muhimi, ularning fidoyilikka yöğrilgan xizmatidan yurtdoşlarimiz mamnun, tinç-osoyişta, farovon hayot keçirişmoqda.

Darvoqe, yaqinda respublikamizdagi 208 ta şahar-tuman IIB boşliqlari örtasida ötkazilgan “Eng yaxşi hududiy içki işlar organi boşliği” körik-tanlovida Yakkasaroy tumani IIOFMB boşliği, podpolkovnik Alişer Murodov faxrli 1-örinni qölga kiritdi.

Uşbu yuqori natija va e’tirof, şubhasiz, fidokorona va halol mehnatning mahsulidir. Zotan, xizmatga sadoqat va xalq roziligi – har qanday yuksak e’tirofning mustahkam poydevoridir.

Gulnoza TURĞUNBOYEVA,
öz muxbirimiz.
Abu KENJAYEV
olgan suratlar.

Toşkent şahri.

Mutaxassis minbari

HARBIY JAMOADA
ruhiy holat muhim

Harbiy xizmatçidan mas’uliyat, qat’iy intizom va burçga sadoqat talab qilinadi. Işdagi muvaffaqiyat esa nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki ruhiy barqarorlik bilan ham çambarças boğliq. Şu bois harbiy qismlarda psixoprofilaktika işlariga katta e’tibor qaratilmoqda. Uşbu yönaliş şaxsiy tarkibning ruhiy holatini mustahkamlaş, Vatan himoyaçilarining stress holatlariga bardoşliligini va xizmat samaradorligini oşirişda muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixoprofilaktika odatda muammoni yuzaga kelganidan keyin hal etiş emas, balki uning oldini olişga qaratilgan böladi. Bunda muntazam yakka tartibda va guruhli suhbatlar ötkaziş, harbiy xizmatçilarning ruhiy holatini örganiş hamda zarur hollarda psixologik yordam körsatiş muhim. Şu sababli harbiy psixologning vazifasi şaxsiy tarkibning ruhiy immunitetini mustahkamlaşdan iborat. Ruhiy jihatdan barqaror harbiy xizmatçi vazifasini mas’uliyat bilan bajaradi, kutilmagan vaziyatlarda töğri qaror qabul qila oladi. Harbiy jamoada soğlom psixologik muhitni yaratiş komandirlar hamda harbiy xizmatçilarning özaro hurmati, döstona munosabatiga ham boğliq. Psixologik treninglar, motivatsion suhbatlar va jamoaviy maşğulotlar orqali harbiy xizmatçilarda özini boşqariş, hissiyotlarni nazorat qiliş könikmalari şakllantiriladi.

Şuningdek, psixolog har bir harbiy xizmatçining oilaviy, şaxsiy yoki xizmatdagi keçinmalariga befarq bölmasligi kerak. Taşqi muhit har bir insonning kayfiyatiga bevosita ta’sir ötkazadi. Harbiy xizmatçining ham içki dunyosi, kayfiyati va ruhiy muvozanati uning xizmatdagi xatti-harakatlarida bevosita aks etadi.

Xulosa qilib aytganda, xizmatdagi barqarorlik, intizom va sadoqatning asosi – ruhiy soğlomlikdir. Şu bois psixoprofilaktika tadbirlarini muntazam olib boriş, har bir harbiy xizmatçining ruhiy holatiga e’tiborli böliş bugungi kunda harbiy jamoa hayotidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Umidillo MIRZAKARIMOV,
IIV Qorovul qöşinlari 7553-sonli harbiy qism katta ofitser-psixologi, katta leytenant.







Tergovni bilimdonlar olib boradi

Tergovçi – çigal vaziyatdan haqiqatni ming çiğiriq orasidan izlaydi. Ayniqsa, rejalaştirib sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilişda ziyraklik va sinçkovlik köproq kerak böladi. Negaki ba’zi jinoiy holatlarda ayrim kişilarning soddaligi yoki qonunni bilmasligi tufayli noqonuniy harakatlar sodir etgani va aralaşib qolgani ham kuzatiladi.



Lavhamiz qahramoni Zangiota tumani IIB huzuridagi Tergov bölimi tergovçisi, podpolkovnik Xurşid Örinov tomonidan körib çiqilgan davlat mulkini yaşirin ravişda öğirlaş bilan boğliq jinoiy işda şunday holat ayon böldi.

Zangiota tumani «Ramadan» mahallasida yaşovçi 27 yoşli Davron Jonibekov (ism-şariflar özgartirildi) şu tumanning Köksaroy mahallasida istiqomat qiluvçi 35 yoşli Sobir Alibekov yana ikki nafar şerigi bilan jinoiy til biriktirib, mahalla hududida joylaşgan ATB «Universalbank»ning Zangiota filialiga qaraşli bankomatidan pul öğirlaş rejasini tuzişadi.

Ammo ular öğirlikni nihoyasiga yetkazib, bankomat içida bölgan 150 million sömni öğirlay olmasdan, öljasiz qolgan bölişsa-da, bankomat apparatiga 35 million sömlik miqdorda texnik zarar yetkazişadi.

– Sirtdan qaraganda rejani ular orasida yoşi kattasi – 35 yoşli S.Alibekov tuzgan deb öylaysiz. Lekin holat örganilganda, uning bu yetakçilar safida emas, balki bankomat xonasi oldiga çiqib kuzatib turgani aniqlandi, – deydi podpolkovnik Xurşid Örinov.

Yana bir holat. Tumanning «Nurobod» mahallasida yaşovçi fuqaro Qosim Ergaşev spirtli içimlik iste’mol qilgan holda özaro oilaviy kelişmovçiliklar sababli qizi Rohila Ergaşevaning qorniga piçoq sançib, oğir tan jarohati yetkazgan. Bu holat örganilganda oilaviy muhit avvaldan yaxşi emasligi, otaning muntazam spirtli içimlik iste’mol qilişi, farzandlar tarbiyasi öz holiga taşlab qöyilgani oqibatida qizning ota gapiga quloq solmay qöygani ma’lum böladi. Ota tergovda «Bolamga aytinglar, meni keçirsin, içkilik ta’sirida bilmasdan piçoq sançib qöydim, unday qiliş niyatim yöq edi», dedi. Afsuski endi keç. Hali ham şifokorlarning sa’y-harakatlari bilan qizi tirik qoldi. Aks holda ota qattiq jazoga tortilişi mumkin edi, – deydi tergovçi.

Xullas, qonunni bilmaslik yoki unday qiliş niyatim yöq edi, degan gaplar aybdorni javobgarlikdan ozod qilmaydi. Şuning uçun har ikkala holat böyiça töplangan hujjatlar huquqiy baho beriş uçun sud idoralariga yuborildi. Darvoqe, bugungi texnika asrida nafaqat qadamni, hatto telefon tugmaçasini ham yetti öylab bosiş – zamon talabi.

Şuhrat RÖZIYEV,
öz muxbirimiz.

Toşkent viloyati.

IIV Tezkor-qidiruv departamenti rahbariyati va şaxsiy tarkibi boşqarma boşliği, polkovnik Nodir Gapparovga volidayi muhtaramasi

RA’NO ayaning

vafoti munosabati bilan hamdardlik bildiradi.

Ветераны – наша гордость

ПРИМЕР ДЛЯ ПОКОЛЕНИЙ



Есть люди, чей жизненный путь становится настоящим примером для окружающих. Их заслуги измеряются не только годами службы, наградами и занимаемыми должностями, но и уважением коллег, благодарностью учеников, добрыми делами и памятью, которую они оставляют после себя.

Именно к таким людям относится полковник в отставке Хаётилла Абдуллаевич Салихов.

Он родился 15 ноября 1935 года в Ташкенте, в махалле “Чакичмон”. Его детство пришлось на непростые военные годы, которые рано научили мальчика трудолюбию, терпению и ответственности. После школы он поступил в железнодорожный техникум, работал помощником машиниста паровоза, а затем продолжил образование в Ташкентском институте инженеров железнодорожного транспорта. Позднее окончил Ташкентскую среднюю специальную школу милиции, учился на юридическом факультете ТашГУ (ныне Национальный университет Узбекистана).

Служба в органах внутренних дел стала главным делом его жизни. Начав профессиональный путь с работы в кадровых подразделениях УВД (ныне ГУВД) Ташкентской области, Хаётилла Абдуллаевич уделял особое внимание воспитанию личного состава и подготовке молодых специалистов. При отборе кандидатов на службу он ценил прежде всего честность, порядочность и преданность делу.

В 1977 году, после работы первым заместителем начальника УВД Ферганской области, он был назначен на руководящую должность в системе транспортной милиции, а затем возглавил Управление транспортной милиции, которым руководил до 1985 года.

Хаётилла Абдуллаевич был руководителем, который всегда стремился к развитию. Он выступал за улучшение условий службы, укрепление материально-технической базы подразделений, ремонт и реконструкцию служебных помещений. При его участии было организовано строительство комплекса зданий управления, решались вопросы финансового обеспечения. Герой очерка убежден, что забота о сотрудниках – важное условие успешного выполнения ими служебных задач.

Многолетний добросовестный труд Хаётиллы Абдуллаевича получил заслуженное признание. Он награжден 11 орденами и медалями. Однако, пожалуй, одной из самых дорогих наград для него остается уважение людей, с которыми он прошел долгий служебный путь.

Даже спустя годы бывшие сослуживцы и ученики продолжают навещать своего наставника.

Сегодня ветеран гордится своей семьей, детьми и внуками. Особая радость – продолжение профессиональных традиций: один из его внуков также выбрал службу в системе обеспечения безопасности на транспорте и занимает руководящую должность.

Сам Хаётилла Абдуллаевич и сейчас поражает окружающих удивительной памятью, мудростью, оптимизмом и искренней любовью к жизни.

Для него дороги встречи с бывшими коллегами, воспоминания о годах службы и возможность поделиться опытом с теми, кто приходит к нему за советом.

91 год – это целая эпоха, наполненная событиями, испытаниями, достижениями и встречами. За плечами – большая служебная биография, достойные награды, преданные ученики и добрые дела, которые продолжают жить в памяти людей.

Юлия МУСТАФАЕВА,
соб. корр.

Профилактика

ПОВЫШЕНИЕ ПРАВОВОЙ И ЦИФРОВОЙ ГРАМОТНОСТИ

Отделом миграции и персонализации УКД ОВД Учтепинского района города Ташкента в рамках 3-го этапа оперативно-профилактического мероприятия “Безопасная и здоровая страна” на местах проводится агитационно-пропагандистская работа среди населения.



Она направлена на обеспечение кибербезопасности, предупреждение граждан о различных видах мошенничества и киберугроз, встречающихся в сети интернет, а также на разъяснение широкой общественности норм Закона “О регистрации граждан Республики Узбекистан, иностранных граждан и лиц без гражданства по месту жительства и месту пребывания”.

Кроме того, в целях обеспечения безопасности граждан даются практические рекомендации по установке мобильного приложения “APK Qo’riqchi”, а также разъясняются его возможности и порядок использования.

Основная цель данных агитационных мероприятий – повышение правовой и цифровой грамотности населения, предотвращение киберпреступлений, а также укрепление безопасной среды в обществе.

Соб. корр.

Безопасность – залог жизни

БЕРЕГИТЕСЬ УГАРНОГО ГАЗА



С наступлением холодов возрастает потребность в тепле, однако неосторожность при использовании отопительных приборов может привести к трагедии. Чтобы обеспечить безопасность студентов в осенне-зимний период, в вузах и колледжах проводятся профилактические мероприятия.



Одна из таких встреч прошла в Каракалпакском государственном университете имени Бердаха с участием инспекторов профилактики ОПП УВД города Нукуса, специалистов городского отдела по чрезвычайным ситуациям и родителей. Особое внимание уделили студентам, проживающим на съемных квартирах.

Специалисты напомнили о правилах безопасности при использовании обогревателей и котельных, а также о важности своевременной очистки дымоходов. Угарный газ – невидимый и опасный враг, но защитить себя от него помогут простые меры предосторожности.


Помните: пренебрежение правилами безопасности ставит под угрозу жизнь и здоровье. Будьте бдительны и строго соблюдайте требования пожарной безопасности. Ведь осторожность – залог жизни!

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
соб. корр.
Республика Каракалпакстан.

Service and oversight

CAPITAL CITY SECURITY AND SAFE TOURISM

The Minister of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan conducted an on-site review of the joint activities of specialized units of internal affairs bodies and personnel from other law enforcement agencies involved in maintaining public safety at night in Tashkent.



Particular attention was paid to the effective implementation of the large-scale “Safe and healthy country” operational and preventive measures, as well as ensuring personnel vigilance and readiness to respond promptly.

At the Tashkent City complex in Shaykhantakhur district, the Minister inspected security arrangements at the Musical fountain, Tashkent City Park, Tashkent City Mall and Park in Mall. Taking into account the growing number of foreign tourists visiting the capital, he issued specific instructions to establish a special unit responsible for ensuring safe tourism in the area.

The response time, alertness and operational readiness of rapid-response security patrol teams were also tested in practice.

The inspection continued along “Özbekiston ovozi” street in Mirzo Ulugbek district, where entertainment venues, retail outlets and catering establishments operate around the clock. Security arrangements, the activities of the law and order post, personnel discipline and standards of communication were reviewed.

Such comprehensive preventive measures aimed at ensuring the safety and peace of mind of Tashkent residents and visitors are continuing consistently.

For dedication to the Cause

THE REWARD OF DEDICATED SERVICE



Major Suyar Khudoyqulov, a prevention inspector serving the “Boghbon” mahalla in Kitob district, places great importance on cooperation with community leaders, respected elders, young people and the wider public in carrying out his duties.

During the current year, he has drawn up more than 200 administrative reports, four of which concerned violations of firearms storage regulations. In addition, more than 126 citizens’ appeals were reviewed, ensuring that lawful decisions were made.

In July last year, a report was received through the “102” emergency service that an unidentified person had stolen a head of cattle from citizen X. E.’s household plot. Conducting an initial investigation, the prevention inspector used surveillance camera footage to identify the suspects. It was established that two individuals, while walking through the neighbourhood, noticed that the gate was locked and, assuming nobody was home, stole the cattle. Thanks to prompt action, their involvement in crimes committed in other areas was also uncovered.

Following this incident, the “Boghbon” Citizens’ Assembly was placed in the “yellow” crime-risk category. Currently, major Khudoyqulov is intensifying preventive measures to restore the neighbourhood to the “green” category. Together with the mahalla chairman, assistant hokim, youth leader, women's activist and community elders, he is strengthening legal awareness campaigns and fostering an uncompromising attitude towards crime.

His dedicated service has received state recognition. By Presidential Decree, major Suyar Khudoyqulov was awarded the “Shuhrat” Medal.

Recognition and appreciation

TRIBUTE TO THE GUARDIANS OF HEALTH

A ceremonial event was held at the Ministry of Internal Affairs to mark Healthcare workers’ day. The event was attended by the ministry’s leadership, medical personnel, representatives of the Ministry of Health and partner organizations.



Addressing the gathering, Minister of Internal Affairs Lieutenant General Aziz Tashpulatov congratulated healthcare workers on their professional holiday and highly praised their dedicated efforts to safeguard the health of internal affairs personnel, their family members and veterans.

It was noted that, thanks to the attention of the Head of State, large-scale reforms are being implemented in the Ministry of Internal Affairs’ healthcare system. Currently, the system comprises 11 inpatient medical facilities, 16 outpatient clinics, sanatoriums and specialized medical units. The number of hospital beds has increased from 1,000 to 1,300.

The establishment of new hospitals in Kashkadarya, Jizzakh, Bukhara, Syrdarya and Fergana regions has increased their total number from seven to twelve. In addition, renovation works were carried out at medical facilities in Tashkent, Bukhara, Fergana and Namangan during 2025–2026. The Medical department of the Tashkent region Main Department of Internal Affairs was relocated to a new building. At the Central Hospital of the Ministry of Internal Affairs, the number of high-tech surgical operations has risen from 750 to 2,100 over the past two years.

During the ceremony, a group of healthcare professionals were awarded early promotions to special ranks, departmental badges of honour and valuable commemorative gifts.

Regional best practices

PUBLIC SATISFACTION – THE FOUNDATION OF RECOGNITION



The personnel of the Yakkasaray district DIA are systematically working to maintain public order, prevent offences and respond promptly to citizens’ appeals.

The department pays particular attention to the individual approach to personnel through the “employee-by-employee” system, regularly reviewing their family circumstances and personal concerns. Lieutenant colonel Rasuljon Masharipov emphasizes that strengthening service discipline is one of the key factors in improving performance.

Twenty-nine cadets of the Ministry of Internal Affairs Academy are consolidating their theoretical knowledge through practical training under the dual education system. As part of preventive efforts addressing women's issues, 279 women affected by violence were issued protection orders during the first nine months of the year, while 82 families were reconciled.

Since the beginning of the year, 5,437 citizens have received ID cards and 6,166 have been issued international biometric passports. A total of 2,688 administrative reports were drawn up for violations of migration regulations. In the fight against cybercrime, 573 criminal cases were initiated, with legal measures taken in 343 of them. Some 65,000 residents have connected to the “APK Quriqchi” mobile application.

The Rapid response management centre received more than 24,000 appeals, all of which were addressed. The “Qalqon” system helped solve 12 crimes while the trail was still fresh.

Recently, Lieutenant colonel Alisher Murodov, head of the Yakkasaray district DIA, won first place in a competition among the heads of 208 district and city internal affairs departments. This achievement reflects the team's dedication and coordinated efforts.

Translated by Munavvar RASHIDOVA, docent.

Dolzarb mavzu

ALGORITM VA ŞAXSIY FIKR: QAY BIRI KUÇLI?

Tan oliş kerakki, bugungi axborot asrida yoşidan qat'i nazar odamlar ijtimoiy tarmoqlarsiz turolmaydigan bölib qolgan. Ba'zilarning profilida atrofdagilarga nafrat aks etib tursa, kimdir kibr, kimdir hajv ortidagi ğam-qayğusini sezdirib qöyadi. Ayrim kişilarni esa internetdagi falsafiy gaplar, qanotli iboralar boşqararmikan, deb öylab qolaman.



Profillarni bezatişdan söz oçganimiz bejiz emas. Turli ijtimoiy tarmoqlarning tavsiya algoritmlari aynan foydalanuvçilarning profil hamda şaxsiy ma'lumotlari orqali uning ong-u fikrini öqişga kirişib ketişi haqida Coursera ma'lumot keltiradi. Köpçilik uçun bu yangilik bölmasligi mumkin. Ammo e'tibor qaratiş muhim bölgan jihat şuki, tavsiya algoritmlari foydalanuvçining axborot muhiti, dunyoqaraşi va hatto şaxsiy özligini şakllantirişda muhim omilga aylanib borayotganligidir. Naşr algoritmlar yoşlarning hayotiy maqsadlari, qadriyatlari va şaxsiyatini ma'lum darajada "kod"layotganiga e'tibor qaratdi. Ya'ni, yoşlarning qanday ma'lumotni körişi, nimaga qiziqişi va qaysi ğoyalarni muhim deb qabul qilişiga körinmas kuçlar ta'sir körsatayotir.

Bir yodga olaylik, telefondan oldingi davrlarda yoşlarning maqsadlari asosan oila, mahalla, maktab, kitob va jamiyat ta'sirida şakllanar edi. Köçada katta avlod vakillarining tanbehi yoki maqtovi bola uçun katta ilhom manbayi böla olardi. Bugun ijtimoiy tarmoqlar ham kuçli tarbiya institutiga aylandi. Masalan, blogerlarning hayot tarzi muvaffaqiyat mezoni sifatida namoyon böladi, tez boyiş ğoyalari mehnat va bilim qadriyatlaridan ustun qöyilişi mumkin hamda maşhurlik kasbiy mahoratdan muhimroqdek körinişi ehtimoli bor. Natijada ota-ona yoki kattalarning hayotiy gaplari bola ongigaça yetib bormasdan, bu gaplar u amal qiladigan virtual dunyo saboqlariga mos emasligi sabab hayotiy emasdek tuyula boşlaydi.

– Pedagogik nuqtayi nazardan algoritmlarni taqiqlaş yoki ulardan qoçiş foydasiz. Uning örniga yoşlarda tanqidiy fikrlaş könikmasini şakllantiriş zarur. Çunki inson ongli mavjudot bölib, algoritm uning tanlovini boşqarişga yöl qöyib bölmaydi. Şuning uçun bugun pedagogikaning muhim vazifasi yoşlarni algoritmlar bilan ongli munosabatda bölişga örgatişdir, – deydi IIV Jizzax mintaqaviy öquv markazi boşliği örinbosari – öquv bölimi boşliği, mayor Hakim Ibragimov. – Ayniqsa, raqamli asrda huquqni muhofaza qiliş idoralari xodimlarining algoritmlarga qaram iste'molçi emas, balki axborotni anglaydigan va mustaqil qaror qabul qila oladigan şaxs, ongli xodim etib tarbiyalaş muhim.

Darhaqiqat, içki işlar organi xodimi xizmat faoliyati davomida turli axborot manbalari, raqamli platformalar va sun'iy intellektga asoslangan tizimlar bilan işlaydi. Şu bois huquqni muhofaza qiliş sohasi mutaxassislarida axborot xavfsizligi madaniyati, raqamli savodxonlik va tahliliy fikrlaş könikmalarini rivojlantiriş ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar inson faoliyatini yengillaştiruvçi vosita bölişi mumkin, ammo qaror qabul qiliş mas'uliyati va huquqiy baholaş jarayoni hamişa insonning özida qolişi lozim.

Siz-çi, tanlov va maqsad oldida özingizni eşitasizmi yoki Sizni qurşab turgan muhitning roli kattami?

Muqaddas SAPAROVA,
öz muxbirimiz.
Jizzax viloyati.

Taqdimot

MA'NAVIY TARBIYA VOSITASI

Norin tumani Axborot-kutubxona markazida IIV Birlaşgan tahririyatining Namangan viloyati böyiça muxbiri, Özbekiston Jurnalistlar uyuşmasi a'zosi Jahongir Töxtasinov hamda içki işlar organlari faxriysi, iste'fodagi mayor Abduvoyid Ergaşev hammuallifligida naşr etilgan "Haqquli mingboşi" nomli kitobning taqdimoti ötkazildi.







Unda sözga çiqqanlar kitobning tarixiy xotirani tiklaş, ötmişda yaşab ötgan fidoyi insonlar hayotini örganiş, ularning ezgu işlarini yoş avlodga yetkazişdagi ahamiyati xususida fikr bildirdilar. Ayniqsa, el orasida hurmat qozongan şaxslar hayotini kitob sahifalariga muhrlaş borasidagi bunday taşabbuslar alohida e'tirof etildi.

Tadbir doirasida içki işlar organlari faxriylari Avazbek Karimov va Abduvoyid Ergaşev muallifligida tayyorlangan "Mangu barhayotlar" kitobining ham taqdimoti bölib ötdi. Uşbu kitob Norin tumanida xizmat vazifasini bajariş çoğida halok bölgan içki işlar organlari xodimlari xotirasiga bağişlangan. Unda Vatan va xalq osoyiştaligi, fuqarolar xavfsizligi yölida jon fido qilgan mard insonlarning hayot yöli, xizmat faoliyati, jasorati haqida hikoya qilinadi.

Taqdimotda qayd etilganidek, uşbu kitob kasbiga sadoqat, jasorat va fidoyilik tuyğularini yoş avlod qalbiga singdiradi, ayniqsa, içki işlar organlari xodimlari uçun muhim ma'naviy tarbiya vositasi bölib xizmat qiladi.

Hasanxöja FATTOHXONOV,
katta leytenant.

POSTDA
НА ПОСТУ • AT THE POST

Jinoyatga jazo muqarrar

KREDITGA TÖLANGAN UMR



Xalqimizda «Tuqqan emas, boqqan ona» degan gap bor. Unda «ona» degan uluğ nomning mohiyati mujassam. Zero, ona böliş uçun faqat dunyoga keltirişning özi kifoya emas. Bolaning birinçi yiğisini eşitiş, qölidan tutgança qadam taşlaşini kutiş, kasal bölsa, boşida bedor ötiriş, qornini töydiriş, ust-boşini butlaş, yaxşi-yomonni anglatiş, uning komil inson qilib tarbiyalaş ham onalikdir.

Qörğontepa tumanida yaşovçi Marhaboxon Ahmedova Doniyorni ana şu mehr bilan voyaga yetkazdi. U bolani tuğmagandi, ammo tuqqan onadan kam körmadi. Oq yuvib, oq taradi, odobli, halol va vijdonli inson qilib tarbiyalaşga intildi. Biroq butun umrini bağişlab tarbiyalagan farzandi bir kun kelib öz joniga qasd qilişini xayoliga ham keltirmagandi.

Doniyor Ahmedov endigina 18 yoşni qarşi olgandi. Hayoti qançadan-qança orzu-umidlar ostonasida turgan bir paytda u oson pul topişdek notöğri yölni tanladi. Onasiga bildirmay, uning nomiga onlayn kredit rasmiylaştirdi. Biroq bank xodimlari ayolga qönğiroq qilib, olingan kredit böyiça tölovni amalga oşirişini aytgaç, hammasi oşkor böldi. Şundan keyin Marhaboxon opaning xotirjam kunlari tugadi. Telefon jiringlasa, yuragi orqasiga tortib ketadigan böldi. Çunki har bir qönğiroq ortida öğlining qarzi, uning mas'uliyatsizligi va zimmasiga tuşgan majburiyat turardi.

Ana şunday kunlarning birida u işdan uyga qaytgaç, öğliga yuzlandi:

– Eplasang olmaysanmi kreditni? Bankdagilar bezor qilib yuborişdi-ku!

Bu gap ona qalbining tub-tubidan alam bilan çiqqandi. Aslida u farzandi xatosini anglab, qarzni tölaş çorasini körar, deb öylagandi. «Öğlimga qattiqroq gapirsam, aqli kirar», deb umid qilgandi. Doniyor esa boşqa narsa haqida öyladi. U pulni allaqaçon sarflab bölgan, qarzni uzişga imkoni yöq edi. Onasi esa undan javob talab qilayotgandi. Şu payt uning xayoliga inson aqliga sığdirişi qiyin bölgan fikr keldi: qarzni tölaş örniga, qarz haqida gapiradigan odamni yöqotiş kerak.

U yarim tungaça qulay fursat poyladi. Uyda hamma tinçlandi. Marhaboxon opa uyquga ketdi. Doniyor esa oşxonadan piçoqni oldi va onasi yotgan xonaga kirdi. Keyingi daqiqalarda bu xonada sodir bölgan voqeani tasavvur qilişning özi odamning yuragini ezadi. U onasiga piçoq bilan taşlandi. Bir zarba, yana bir zarba... Tiğning özi ham sinib qoldi. Ammo ona hali tirik edi. Jarohatlangan, holsiz, huşidan ketay, deb turgan ayol özini himoya qilişga emas, farzandining qölini töxtatişga urindi.

– Meni öldirma...

Ona iltijo qilar, bu esa öğilga ta'sir qilmasdi.

– Mayli, senga pul kerak bölsa, sumkamda bor. Uni olgin-da, uydan çiqib ket...

Ona ölim bilan olişib yotgan bölsa-da, şu holida ham farzandini öyladi. Öğlining qotil sifatida qamalib ketişidan qörqib, uni voqea joyidan ketişga undadi. Öz jonidan umid uzgan paytda ham uni qutqarişga urindi. Bu dunyoda farzandi uçun özini qurbon qilişga qodir yana kim bor? Ammo öğil onasining sönggi mehrini ham anglamadi.

U sumkadan qariyb uç million söm pulni oldi. Onasini harakatsiz holda körib, vafot etgan, deb öyladi. Şundan keyin qöl-oyoğini sim bilan boğlab, uydan çiqib ketdi.

Bir paytlar şu qöllar uning peşonasini silagan edi. Şu qöllar uni kiyintirgan, ovqatlantirgan, silkinib-silkinib maktabga kuzatgan edi. Endi esa öşa qöllar boğlangan...

Marhaboxon opa şifoxonaga yotqizildi. Ammo hayotini saqlab qolişning iloji bölmadi...

Doniyorning bu mudhiş qotillikka qöl urişiga faqat qarz sabab böldi, deyiş notöğri. Bu fojia zamirida mas'uliyatdan qoçiş, yengil yöl izlaş, öz qilmişi oqibatini öylamaslik, pulga notöğri munosabat va inson hayoti qadrini anglamaslik kabi illatlar ham bor. Muammo paydo bölganda uni hal qiliş örniga, undan qoçiş, oxir-oqibatda öz xatosini boşqa bir insonning hayoti evaziga «bartaraf etiş»ga uriniş ana şunday fojiaga olib keldi.

Bankdan olingan qarzni qaytarişning imkoni bor edi, lekin onaizor oldidagi qarzni qaytarib bölarmikin...

Jinoyat işlari böyiça Qörğontepa tuman sudida mazkur jinoyat işi körib çiqilib, Doniyor Ahmedovga nisbatan 10 yil muddatga ozodlikdan mahrum qiliş jazosi tayinlandi.

Saminjon HUSANZODA,
öz muxbirimiz.

Andijon viloyati.

BIR TOVUQNING BADALI

Bölgan voqea

– Bu voqeaning yuz berganiga öttiz yillardan oşdi, – deya xotirlaydi yoşi saksonga yaqinlaşgan taniş oqsoqol. Bir kuni ikki qöşnimning bir-biriga baland ovozda gapirayotganini eşitib köçaga çiqdim. Qarasam, 30 yoşlar çamasidagi qöşnimiz bir tovuqni qöltiqlab olgança 50 yoşlardan oşgan opa bilan baqir-çaqir qilyapti. Yigit: «Tovuq meniki» – desa, ayol: «Bu mening tovuğim, uka, özim tuxumdan oçirib olganman, uni yaxşi taniyman», – deydi.

«Hay-hay, uyat böladi-ya, qöyinglar», – deb oraga tuşdim. Ular yana tortişavergaç, qöşni yigitga «Hoy falonçi, bir tovuq ekan-ku, qöysang-çi sen desam, yöq bu



mening tovuğim. Siz aralaşmang», – dedi. Opa uyaldi şekilli: «Ol-ey, bir tovuq bilan boyib qolsang, sen boy böla qol», – deb ortiga qaytdi. Ammo, uyiga kirib ketar çoği jahl ustida: «Iloyim tovuqqa yolçima!», – dedi. Bu gap haligaça quloğim ostida turadi.

Xullas, buni nega aytyapman? Şu qöşnim neça yil tovuq qilaman, deb jöja boqdi, ammo ularning heç qaysisi tovuq bölmadi. Bir yili tulki yeb ketsa, boşqa yili kasallik tarqalib, jöjalari qirilib ketdi.

Bir kuni bu voqeani yigitning öziga eslatdim.

– Ha, töğri aytasiz. Öşa kuni uyga kelsam, özimning xuddi şunga öxşaş tovuğim oğilxonadan çiqib keldi. Lekin oriyatimmi, nafsimmi yöl qöymay, qöşnimning tovuğini egasiga qaytarib bermadim. Afsus, opa ötib ketdi. Tirik bölganida, hozir önta tovuq bergan bölardim, – dedi boşini quyi solib.

Şuhrat RÖZIYEV,
jurnalist.

Mulohaza

ERTAKLAR – EGRILIKKA YETAKLAYDIMI?

«Bir bor ekan, bir yöq ekan, qadim ötgan zamonda...» degan sözlar bilan boşlanadigan ertaklar barça bolajonlarni birdek xursand qilib, hayajonga soladi. Şular qatori mening farzandlarim ham uxlaşdan oldin ertak eşitişni yaxşi köradi.

Şu kunlarda «Ertakli 365 kun» kitobini öqib bölib, özbek xalq ertaklari jamlangan «Uçar gilam» mutolaasiga kirişdim.



BOLANI HAYRATGA SOLGAN YOŞ MASALASI

Kitobning 13-sahifasiga kelib, tok urgandek seskanib ketdim. Qayta-qayta öqidim, anglaşga urindim: «Bir şaharda Sanobar degan podşoh bor emiş, şu Sanobar Gul degan qizni 5–6 yoşlik vaqtida yaxşi körib, ota-onasini ham rozi qilib olibdi va unga yaxşi enagalar tayin qilibdi... Nihoyat qiz voyaga yetgaç, töy qilib olibdi. Hozir şu beçora Gulni temir qafasga solib qöygan emiş...»

Birdan esimga tuşdi – bu kitobni bir neça yil oldin öğlimga olib bergandim. U öşa kuniyoq mutolaaga kirişgan, ayni şu joyiga kelganida «Oyi, 5-6 yoşli qizlarni turmuşga beriş mumkinmi?» deb söragandi. Öşanda işimdan çalğigim kelmay, «Yöq, unday bölişi mumkin emas. Kitobda xato ketgandir», deb qöya qolgandim. Lekin bir neça sahifa öqib, «Oyi, xatomas ekan. Podşoh oşpaziga «Men Gul degan xotinimni yetti yaşarlik vaqtida yaxşi körib, ota-onasini rozi qilib oldim», deyapti-ku», deb qolgandi.

Öşanda ertaga davom etirişini aytib, kitobni öğlimning qölidan olgandim. Undagi ertaklarni öqib çiqib, bolamning yoşiga mos emas ekan, degan xulosa bilan yaşirib qöygandim.

Bugun öşa taniş jumlalar, taniş voqealar yana oldimdan çiqdi. Endi şunçaki öqimadim, balki «Bu kitob, bu ertaklar bolalarga nimani tarğib qilyapti?» degan haqli savolga javob izladim.

Dahşat! Hozir nima öqiyapman?! Şunday bölişi mumkinmi? Bolalar kitoblarida şunday gaplar, şu kabi voqealar aks etsa, bu me'yoriy holatmi?!

Miyamda majlis boşlanib ketdi. Xayolimda ming bitta savol...

Kitob kimlarga möljallangan?

Töğri, özbek xalq ertaklari ham mavzu, ham uslub böyiça rang-barang. Ular köp asrlar avval yaralgan hamda öşa zamonlarning muammolari, madaniyati va taraqqiyotini aks ettiradi.



Ammo, ertak deb atalgani bilan, ularning hammasi ham bolalarga möljallanmagan. Orasida uyatsiz voqealar tasvirlanganlari ham talaygina bölib, katta yoşlilarga atalgan. Masalan, «Keliniga oşiq bölgan şoh» yoki «Zulm va qasos» (unda podşoh öz qiziga uylanmoqçi böladi) kabilar. Şuni anglagan holda, qölimdagi kitobning avval muqovasi, söng taqriziga qaradim. Muqovada: «Özbek xalq ertaklari», «Ertaklar – yaxşilikka yetaklar», «Uçar gilam» yozuvlari bor. Taqrizda esa şunday yozib qöyilibdi: «Jahonning boşqa xalqlari kabi özbek xalqi ham öz ertaklariga boy. Özbek xalq ertaklarida millatimizga xos vatanparvarlik, rahm-şafqat, zukkolik, mehmondöstlik, rostgöylik, saxiylik kabi önlab fazilatlar ustuvordir. Ertaklarimiz bolajonlarimizning pok köngliga toza suvdek şildirab kiradi, ular ongini musiqa yangliğ çulğab oladi. Şu jihatdan qaralganda özbek xalq ertaklarini ma'nolar xazinasiga öxşatiş mumkin.

Mazkur ertaklar kitobi uşbu xazinadan olingan bir hovuç hikmat majmuyidir. Öylaymizki, bu kitob bolalarning doimiy hamrohiga aylanadi, ularni ezgulik sari yetaklaşga xizmat qiladi».

Taqrizdan xulosa qiliş mumkinki, bu ertak kitobi kattalar emas, aynan bolalarga möljallab çop etilgan.

Endi savol tuğiladi: nahotki, şunday katta va nufuzli naşriyot bolalarga möljallab çiqarayotgan kitobini, unga jamlanayotgan ertaklarni sinçiklab körib çiqmagan? Nahotki, «bolajonlarga» deb 18+ ham emas, hatto 21+ va undan kattalarni uyaltirib qöyuvçi ertaklarni bemalol, heç ikkilanmay qöşib çop etib yuboravergan?! Olamni ertaklar vositasida anglayotgan, yaxşilik va yomonlik tuşunçalarini undagi qahramonlar orqali tuşunayotgan bolalarga bularni taqdim etib nimaga erişmoqçi?

YIGIRMA MING NUSXADAGI KITOB VA UNING YOŞ ÖQUVÇILARI

Kitobni sotib olganimda, öğlim yetti yo sakkiz yoşlarda edi. Töğri, öşa paytda podşoh uylangan qizning yoşiga ajablangan bölsa-da, Gulning Qahraton va qirq qulga noz-u karaşma qilgança şarob quyib berganini yoki boşqa bir qahramon qabristondan topib kelgan boş suyagini yançib talqon qilganini, kasal qizi uni yegaç soğayib, homilador bölib qolganini tuşunmay, e'tiborsiz ötkazib yuborişi mumkin edi.

Ammo 20 ming nusxada çop etilgan bu ertak kitobini faqat 7 yoşdan 9 yoşgaça bölgan bolalar öqigan, deya işonç bilan ayta olamizmi?!

UYATSIZ ERTAKLAR BUGUN PAYDO BÖLDIMI?

Bolalik paytim uyimizda bir talay ertak kitoblari bölardi. Ota-onam öqib berganidan taşqari, özimiz ham öqib, rasmlarini tomoşa qilişni yaxşi körardik. Ammo ota-onam ba'zi kitoblarni özlari öqib bölgaç, yaşirib yoki biz bolalarning qölimiz yetmaydigan – balandroq joyga qöyib qöyişardi.

Ularning ayrimlarini hali ham eslayman: sabzi rangidagi qalin kitob, muqovasida boğ içida piyola tutgan şoh va köza tutgan malika, orqada kiyik hamda kamon uşlagan yigit tasvirlari bor edi. Bu kitob heç qaçon qölimga tegmagani uçun ham yodimda qolgandi.

Öşa kitobni nega kitob javonlarimizda körmaganimni endi angladim: bugun men farzandim «Uçar gilam»ni öqişini istamaganimdek, ota-onam ham yoşimizga mos bölmagan ertak kitoblari qölimizga tuşişini xohlamagan ekan.

Ya'ni, bola yoşiga mos bölmagan bunday ertak kitoblari avval ham bölgan, faqat kattalar ularning bolalar qöliga yetib borişiga yöl qöymagan.

XÖŞ, NIMA QILIŞ KERAK?

Turk seriallaridagi axloqsizlik, saviyasizlik haqida köp va xöp gapirdik. Ammo döppini olib qöyib, jiddiy öylab qaralsa, axloq masalasini eng boşidan – bolalar kitoblariga e'tibor berişdan boşlaş lozim ekan.

Çunki seriallar allaqaçon yaxşilik va yomonlikni farqlay biladigan katta yoşli tomoşabinlarga möljallab işlanadi. Ertak kitoblarini esa köngli oq qoğozdek toza, beğubor bolajonlarimizning tasavvurini kengaytirişi uçun olib beramiz. Ammo afsuski, hamma ertaklar ham bu niyatlarimizni oqlamas ekan.

Töğri, ertak kitoblarini şunçaki inkor qila olmaymiz. Bolalarga ularni ortiq olib bermaslik ham oqilona yeçim emas. Ertag-u dostonlar özbek xalq ijodiyotining ajralmas qismidir. Ular nafaqat halollik, vatanparvarlik, rostgöylik, insoniy fazilatlarni uluğlaşni örgatadi, balki ajdodlarimizning kundalik hayoti, orzu-niyatlari, odatlari, qadriyatlari haqida ham ma'lumot beradi. Şular orqali bolalar öşa zamon odamlarining öy-xayollari bilan tanişadi, qahramonlar timsolida ular intilgan maqsadlarni anglaydi, tasavvuri kengayadi...

XULOSA ÖRNIDA

Fikrimça, avvalo, ertak kitobi kimga, qaysi yoşdagi öquvçilarga möljallangani aniqlab olgan ma'qul. Masalan, 6 yoşdan yuqori bolalargami yo 14 yoşdan kattalarga? Öşa yoşga mos bölgan ertaklar saralanişi, kiçik yoşdagi bolalarga möljallangan bölsa, folklorşunoslar bilan maslahatlaşgan holda uyatsiz joylari tahrirlanişi, kerak bölsa jiddiy özgariş kiritilişi lozim.

Söngra, xuddi televideniyeda namoyiş etiladigan multfilm va filmlarda bölgani kabi, kitob muqovasida ham yoş çegarasi albatta yozilişi kerak.

Şundagina bolalarga ertak öqib berayotib qizarmaymiz, voqea yarmida töxtamaymiz yoki farzandimizning hayron nigohlari qarşisida mum tişlamaymiz.

Dildora BOZOROVA

POSTDA
НА ПОСТУ • AT THE POST

Salomatlik

QÖLI YENGIL JARROH



Şerzod Röziyev köp yillar davomida oğir xastalik bilan kuraşdi. Jigar sirrozi taşxisini qöygan şifokorlar unga hayotini saqlab qolişning yagona yöli jigar transplantatsiyasi ekanini aytişdi. Zarur tekşiruvlardan söng uning turmuş örtoği donor bölişi mumkinligi aniqlandi. Haqiqiy muhabbat inson taqdiri hal bölayotgan oğir damlarda sinovdan ötar ekan. Nargiza Röziyeva bir lahza ham ikkilanmadi, umr yöldoşining hayotini saqlab qoliş uçun öz jigarining bir qismini berişga qaror qildi.

Jigar köçiriş tibbiyotdagi murakkab va mas'uliyatli jarrohlik amaliyotlaridan hisoblanadi, katta tajriba, zamonaviy texnologiyalar va malakali mutaxassislar jamoasini talab etadi. Tibbiyot fanlari nomzodi, soğliqni saqlaş a'loçisi, mohir jarroh Ötkir Xuşvaqtov taşabbusi bilan amalga oşirilgan mazkur jarrohlik amaliyoti qariyb 12 soat davom etdi. Bir neça bosqiçda olib borilgan operatsiyada 8 nafar jarroh, 4 nafar anesteziolog va 3 nafar jarrohlik hamşirasi iştirok etdi.

– Biz şu kunga qadar 25 marotaba buyrak transplantatsiyasini ötkazganmiz. Ammo jigar köçiriş amaliyoti viloyatimizda birinçi marta amalga oşirildi. Operatsiyaning har bir bosqiçi aniqlik, çuqur bilim va hamjihatlikni talab qildi. Bugun bemor ham, uning turmuş örtoği ham şifokorlar nazoratida. Ularning soğliqlarida ijobiy özgarişlar bor, – deydi Navoiy viloyati köp tarmoqli tibbiyot birlaşmasi oliy toifali jarrohi Ötkir Xuşvaqtov.

Lavhamiz qahramoni faoliyati davomida köplab murakkab jarrohlik amaliyotlarini bajarib, bemorlarning soğayişiga katta hissa qöşdi. Tinimsiz izlaniş, yangilikka intiliş va imkoniyat çegaralarini kengaytiriş uning hayotiy mezoniga aylangan. 2023-yilda "Şuhrat" medali bilan taqdirlangan Ötkir Xuşvaqtovni undan şifo topganlar "qöli yengil jarroh" deya alqaşadi.

Mahliyo XOLOVA,
öz muxbirimiz.
Navoiy viloyati.

TAHSIL VA SIHAT MUVOZANATI

Farzandlarimiz soğlom va barkamol bölib voyaga yetişida maktabdagi tahsil davrining ham ahamiyati katta. Çunki bu pallada köpgina bolalarda köriş qobiliyatining pasayişi, töğri ötirmaslik oqibatida gavdaning notöğri ösişi, ovqat hazm qiliş tizimi faoliyatining buzilişi hamda immunitet zaiflaşişi kabi holatlar kuzatiladi.





Mutaxassislarning ta'kidlaşiça, maktab yoşida öquv yuklamasi tavsiya etilganidan yuqori bölmasligi kerak, aks holda bu bola salomatligiga salbiy ta'sir körsatadi. Darslar orasidagi tanaffus ham aynan şu sababdan belgilangan. Bu vaqtda bola örnidan turişi, yurişi, jismoniy harakatlar qilib olişi hamda toza havodan nafas olişga ulgurişi maqsadga muvofiqdir. Zero, harakat ösib borayotgan organizm uçun suv va havodek zarur fiziologik ehtiyojdir.

Uzoqni yaxşi köra olmaslikka nafaqat közning ortiqça zöriqişi, balki yomon yoritilgan xonada va tananing notöğri holatida mutolaa qiliş ham sabab böladi. Şuningdek, yurgan holatda yoki transportda ketayotganda smartfondan foydalaniş ham köriş qobiliyatiga salbiy ta'sir körsatadi. Köriş qobiliyati me'yorda bölişi uçun yoş avlodga har kuni köz maşqlarini bajarib turiş könikmasini singdiriş lozim. Şu bilan birga, köz xastaliklarining oldini



oliş maqsadida öquvçining taomnomasiga na'matak, sabzi, çernika, çakanda (oblepixa), yertut, kartoşka, karam, pomidor, baliq, şolğom kabi mahsulotlarni kiritiş tavsiya etiladi.

Öquvçi kuniga 6–7 soat darsda ötirib, maktabdan keyin yana uy vazifalarini bajarişiga töğri keladi. Bu pallada gavdaning qiysiq ösişiga yöl qöymaslik uçun bolani öz vaqtida töğri ötirişga, kitob va kompyuter orasidagi masofani saqlaşga örgatiş zarur. Har kunlik takroriy eslatmalar yordamida bu asta-sekin könikmaga aylanib boradi. Unutmang, umurtqa poğonasining qiysiq ösişi aniqlanganidan söng uni töğirlaş ançayin qiyin böladi. Ösayotgan gavda tuzilişidagi salbiy özgarişlar nafas oliş va qon aylaniş tizimi faoliyatini qiyinlaştirib, tez çarçaş va madorsizlanişga olib keladi.

Ovqatlaniş tartibining buzilişi, nosoğlom yegulik, tölaqonli nonuşta qilmaslik bora-bora oşqozon bilan boğliq xastaliklarni keltirib çiqaradi. Rivojlanayotgan organizm juda ta'sirçandir. Şu bois bola imkon qadar yarim tayyor mahsulotlarni iste'mol qilmagani, öta şirin, yoğli va şör mahsulotlardan voz keçgani ma'qul. Farzandingizni oqsilga boy ne'matlar, vitaminlarga töyingan sabzavot va mevalar yeyişga, me'yoridan ortiq şirin şarbat va gazli içimlik örniga mineral suv içişga odatlantiring.

Yodingizda bölsin, kun tartibiga amal qiliş, öz vaqtida va yetarliça uxlaş, töğri ovqatlaniş, me'yoriy jismoniy faollik, toza havoda sayr qiliş yoş avlodni jismonan soğlom qilib tarbiyalaşning eng işonçli şartlari hisoblanadi.

Gulçehra AZIMOVA
tayyorladi.

Aralaş jang san’atlari

VAKILLARIMIZ KUÇLI BEŞLIKDA

Gruziya poytaxti Tbilisi şahrida 1–7-noyabr kunlari aralaş jang san’atlari (MMA) böyiça havaskorlar örtasida jahon çempionati bölib ötdi. Nufuzli musobaqada dunyoning 60 dan ortiq mamlakatidan 800 nafardan ziyod sportçi ğoliblik uçun bahs olib bordi.



Xalqaro aralaş jang san’atlari federatsiyasi şafeligida ötkazilgan mazkur jahon birinçiligida Özbekiston terma jamoasi 30 nafar sportçi bilan iştirok etdi. Tarkibdan nafaqat erkaklar, balki ayol sportçilarning ham joy olgani mamlakatimizda uşbu sport turining ommaviyligi oşib borayotgani va munosib zaxira şakllanayotganidan dalolat beradi. Jismoniy va taktik tayyorgarlik, zarba texnikasi hamda himoyalaniş mahorati sinovdan ötgan murosasiz bellaşuvlarda vakillarimiz jami 8 ta medalni – 2 ta oltin, 3 ta kumuş va 3 ta bronza medalini qölga kiritib, umumjamoa hisobida kuçli beşlikdan joy oldi.

Kattalar örtasidagi bellaşuvlarda terma jamoamiz umumjamoa hisobida 7-örinni egalladi. Öğiloy Jumanova final ğolibiga aylangan bölsa, Mustafo Qadamov kumuş medalni qölga kiritdi. Janobiddin Sattorov esa şohsupaning uçinçi poğonasiga kötarildi.

Yoşlar terma jamoamiz musobaqada yanada yuqori natija körsatib, umumjamoa hisobida 5-örinni band etdi. Final jangida hamyurtimiz Xurşidaxon Roziqova yana bir vakilamiz Nilufar Örolovadan ustun kelib, oltin medalga ega çiqdi. Örolova esa kumuş medal bilan taqdirlandi. Şuningdek, Doniyor Quvondiqov kumuş, Firdavs Atamuratov va Feruzbek Fayziyev esa bronza medallarini terma jamoamiz hisobiga qöşib qöyişdi.

Musobaqa yakunlariga köra, 40 ta medal jamğargan Rossiya terma jamoasi 1-örinni, 9 ta medal bilan Tojikiston 2-örinni, 6 ta medal qölga kiritgan Finlandiya esa 3-örinni egalladi. Özbekiston terma jamoasi 8 ta medal bilan jahonning eng kuçli beşta jamoasi safidan örin oldi.

Mazkur çempionat sportçilarimiz uçun katta xalqaro tajriba va mahorat sinovi bölib xizmat qildi. Terma jamoamizning kelgusi rejalari haqida Özbekiston aralaş jang san’atlari (MMA) assotsiatsiyasi raisi örinbosari Şuhrat Anvarov şunday dedi:

– Jahon çempionatidan taşqari, oldimizda yana muhim musobaqalar turibdi. Hozirda Qarşi şahrida Özbekiston kubogi bahslarini ötkazamiz. Uşbu musobaqa yakunlariga köra, terma jamoa tarkibidagi yigitlarni yana bir bor saralab olamiz. Şundan söng 5–7-dekabr kunlari Duşanbe şahrida bölib ötadigan Osiyo çempionatida iştirok etamiz.

Xulosa qilib aytganda, Tbilisida qölga kiritilgan uşbu tarixiy natijalar mamlakatimizda sportga qaratilayotgan yuksak e’tiborning amaliy samarasidir. Vakillarimiz namoyiş etgan yuksak mahorat, matonat va ğalabaga bölgan kuçli iroda kelgusi xalqaro arenalarda ham Özbekiston bayroği yanada baland kötarilişiga mustahkam zamin yaratadi.

Madina QAHHOROVA,
katta leytenant.

Voleybol

ĞOLIBLAR ŞOHSUPASIDA



1–5-noyabr kunlari 2010–2012-yillarda tuğilgan qizlar örtasida voleybol böyiça MDH musobaqasi bölib ötdi.

Unda 7 davlat – Belarus, Özbekiston, Moldova, Rossiya, Qirğiziston, Qozoğiston va Tojikistondan taşrif buyurgan jamoalar ğoliblik uçun bahs olib bordi.

Özbekiston terma jamoasi dastavval Tojikiston, keyin esa Qirğiziston, Moldova va Qozoğiston vakillariga qarşi keçgan öyinlarda ustunlik qilib, işonçli ğalabalarni qölga kiritdi va yarim final bosqiçiga yöl oldi.

Yarim finalda qizlarimiz musobaqa favoritlaridan biri bölgan Belarus terma jamoasi bilan töqnaş kelişdi. Şakllangan taktik öyin va faollik evaziga Belarus terma jamoasidan ham ustun kelişdi.

Şohsupaning eng yuqori poğonasi uçun keçgan final uçraşuvida qizlarimiz Rossiya terma jamoasiga qarşi maydonga tuşişdi. Murosasiz keçgan bahsda kiçik farq bilan imkoniyat boy berildi va terma jamoamiz musobaqaning kumuş medallariga ega çiqdi.

QIZIQARLI FAKTLAR

“Stadion” sözi miloddan avvalgi 776-yilda birinçi Olimpiya öyinlarida 192 metr masofaga yugurilgan joyga tatbiq etilib, qadimgi yunonça “stadiy” (“bosqiçlar”) sözidan kelib çiqqan.

* * *

Boks rasman 1900-yilda sport turi sifatida qayd etilgan. Bungaça boksni jarohat oliş ehtimoli juda katta deb hisoblaşgan. XX asrga kelib sportning uşbu turi hattoki filmlarda ham ommaviylikka erişgan.

* * *

Yengil atletikaning paydo böliş sanasi miloddan avvalgi 776-yilga töğri keladi. Öşanda qadimgi Yunonistonda Olimpiya öyinlarida birinçi yuguriş musobaqalari bölib ötdi.

Yengil atletikada pastdan start oliş har doim ham bölmagan. 1887-yilgaça start oldidan yuguruvçilar şunçaki buyruqni kutişgan. Sprinter Şerill kenguruning harakatini kuzatib, yangi holatni taklif qilganda, hammasi özgarib ketdi.

* * *



Özbekiston milliy terma jamoasi va Angliyaning “Mançester City” klubi himoyaçisi Abduqodir Husanov Angliya ommaviy axborot vositalari e’tiborini öziga xos bir jihat bilan tortdi.

Nottingemdagi uçraşuv vaqtida sovuq havoga qaramay, Abduqodir maydonga yengi kalta futbolkada tuşgan yagona öyinçi böldi. Uşbu holatga Rising Ballers futbol sahifasi e’tibor qaratdi: “Husanovdan sovuq ötmaydi... Nottingemda yetti daraja ayoz, ammo u maydonda yengi kalta futbolkada öynayotgan yagona futbolçi böldi”.

* * *

10 000 metrga yuguriş böyiça ikki karra Olimpiya çempioni, efiopiyalik Xayle Gebreselassi yuguriş paytida öziga xos köriniş kasb etardi: çap qöli tanasiga bosilgan va gavdasi biroz egilgan edi. Sportçining özi buni har kuni ertalab çap qölida kitoblarni bağriga bosgança, maktabga 10 kilometr yugurib, uyiga keçqurun qaytib kelişi bilan izohlaydi.

Skanvord

POSTDA
НА ПОСТУ • AT THE POST





Binokorlik fani
Toşkent
Musiqa asbobi
Hayo
Ot
Eng uzun daryo
Sadriddin ...
Turmuş
Ungur
Hara-katçan
Fizik atama
Qiyo boqiş
Arab davlati
Guldasta
Tukr avtosi
Qayğu
Yer
1. Poliz ekini
Musiqa asbobi
... Bagdasa-rov
... Roberts (aktyor)
Kinodagi yozuv
2.Suv kanali (Misr)
3.Fazo agentligi
Ozor
Odmi
Avto marka
Egaçi
Koptok
Buğdoy
Yuqori
Musiqiy yo‘naliş
Boks anjomi
Qasam
Örmon hayvoni
Falaj
Vabo
Ot
Mirkarim ..
Yaramas
2
Odam
Billiard tayoği
Qiş ziynati
Aro
Hafta kuni
Cholğu
Pufak
Dur
Temir ip
Ziravor
1
Isrof
Poygak
Otar
Höl
Futbol jamoasi
Qadimgi öyin
Ma’dan
Kir yuviş kukuni
Arab emas
Paxta
Kech
Idrok
Xijolatli
Köp
Şahar (Hindiston)
Gina
Dedalning öğli
Teatr janri
Hind qöşiqçisi
Jahongir ... (xonanda)
Sahoba
3
... Olloyor
Ernest ... (adib)
Tuzuvçi: Mahfuza Ğulomova
Teşik kulça
Qizlar ismi
Maykl ..
Nota
Jamğar-ma nomi
Tomoşa
Yarim
Kuçli
Çeklan-gan miqdor
12 oy

Ömer Seyfettin

PORA

hikoya



Bozor maydonidagi ulkan çinorlar yerga soya taşlab, yaproqlari bilan bir-biriga sirli şivirlaşardi. Kuçli şamol esa boşladi. Advokat Hoji Nomiq afandi közdan keçirayotgan qoğozlari uçib ketmasligi uçun kiçik şiyponni eslatuvçi xonasining derazasini yopdi. Keyin borib, eşik tutqiçiga qöl uzatdi hamki yelkasiga xurjun osgan, egarlangan otining jilovini qölida tutib olgan bir qişloqdoşi yaqinlaşib kelayotganini kördi. U sallali, past böyli, töladan kelgan kişi edi.

– Salom, Ali Xöja, – dedi u, – bemahalda bu yerda nima qilib yuribsiz? Bozor işini boşlaşiga hali ikki kun bor-ku...

Haligi kişi qisiqroq, kiçik közlarini yanada qisdi.

– Yaxşimisiz, Nomiq afandi? Bir muammo çiqib qoldi, şunga yeçim topiş uçun kelayapman, – dedi u boşini sarak-sarak qilib.

– Mayli, keling, gaplaşamiz. Qani, dardingizni ayting-çi, nima böldi?

– Sizdan boşqa kimga ham aytardim?

U otining jilovini supaning tayanç ustuniga boğlab, xonaga kirdi. Yonğoq daraxtidan yasalgan möjaz yozuv stolining öng tarafidagi pastak örindiqqa ötirdi. Xurjunini bir çetga qöyib, öz da'vosini bayon eta boşladi – qişloq raisi Huysuz öğlining ustidan arz qildi. Ali Xöja bir paytlar unga tegişli yer maydoni ustiga bino qurdirgan ekan. Endi esa oradan şunça vaqt ötib, rais bu binoga ega çiqmoqçi bölayotgandi. Holbuki, da'vogarning fikriça, bino kimniki bölsa, yer ham uniki bölişi kerak...

Nomiq Afandi oq oralagan soqolini silab qöydi. Söng közoynagi ustidan qarab:

– Bu masalada siz nohaqsiz, Ali Xöja! – dedi.

– Nega endi? Men nohaqmanmi?

– Ha.

– Yöq, bu bino va yer mening haqqim. Nega bölmasa quriliş paytida çurq etmagan?

– Buning ahamiyati yöq. Siz boşqa insonning yeriga imorat qura olmaysiz.

– Men haq ekanimni bilaman, Nomiq Afandi. Da'vodan voz keçmayman.

– Bu işda yutqazasiz!..

– Mayli, yutqazay, heç qisi yöq. Lekin baribir oxirigaça kuraşaman.

Nomiq Afandi nohaq da'volarni olmas edi. Ali Xöjaning işini rad etmoqçi böldi. Lekin «Bözoyuk» qişloği odamlari uning öttiz yillik mijozlari edi. Har qanday huquqiy masalada unga murojaat qilişga odatlanişgan. Advokatning qişki oziq-ovqat zaxirasi ham deyarli töliq ulardan kelardi. Hoji Nomiq şularni öylab:

– Xöp, mayli, bu işni körib çiqaman. Lekin yutqazsak, mendan xafa bölmaysiz! – dedi.

– Xafa bölişga bölmayman-u, lekin nega endi yutqazişim kerak?

– Chunki baribir siz nohaqsiz.

– Sudya janoblariga çiroyli bir qöçqor yuborsam-çi?..

– Nima?..

– Öşanda da'voni yutib çiqamanmi?

– Unday qilsangiz, bu işni aniq boy berasiz!..

– Nega?

– Yangi sudya siz bilgan odamlardan emas...

– ....

Ali Xöja advokatning xavotiri va hayajonini tuşunmasdi. Undan yangi sudya haqidagi uzundan-uzun maqtovlarni tingladi. U kişi pora, sovğa-salom degan narsalarning aşaddiy duşmani bölib, da'vogar haq bölsa-yu, lekin pora berişga urinsa, öşa zahoti uning işini salbiy tarafga hal qilar ekan!

Ali Xöja:

– Baraka topsin, butun olamda şunday halol insonlar köpaysin! – deb duo qildi.

Nomiq Afandi ham:

– Omin, omin! – dedi.

Ikkovlon da'vo, adolat va haqqöylik haqida bir soatça gaplaşib, iş yuzasidan kelişib olişdi. Advokatning heç bir umidi yöq edi, bu işni şunçaki köngil uçun olayotgandi.

* * *

Ikki hafta ötib, xuddi şu soatda Ali Xöja yaşil rangli şiyponça yonida paydo böldi. Nomiq Afandi bir arznoma yozayotgan edi. Közoynagi ustidan nazar taşlab, mijozini kördi va kuldi:

– Xuş kelibsiz! Nima deyişga hayronman, yutib çiqdik, – dedi.

U sudya qanday qilib bunday adolatsiz hukm çiqarganiga bir haftadan beri taajjubda ekanligini aytdi. Ali Xöja sovuqqonlik bilan:

– Men jönatgan qöçqor tufayli! – deya javob qildi.

– Tuşunmadim!.. Siz sudyaga qöçqor yubordingizmi?

– Ha.

– Baribir öz bilganingizdan qolmapsiz-da...

– Ha, lekin siz «u kişi porani yomon köradi, sovğa berganni nohaq deb hukm çiqaradi», demadingizmi?

– Shunday. Hamma buni biladi.

– Men ham qöçqorni yuborayotganda öz ismimni aytmadim.

– Qanaqasiga?

– Rais Huysuz öğlining ismini yozdirdim.

– !!!…

Keksa advokatning qölidan qalami tuşib ketdi. Örindiqqa suyanib qoldi. Qarşisida porlab turgan qisiq közlarga tikildi...

Bozor hovlisidagi uluğvor çinorlarning yaproqlari şamolda uçib, eşik oldida tik turgan Ali Xöjaning yonidan, tepasidan, oyoqlari orasidan ötgança devorlariga eski viloyat gazetalari yopiştirilgan kiçik xonani tözitişni boşlagandi…

Turk tilidan Gulçehra AZIMOVA tarjimasi.

TILBILIM

Tilimizda köçma ma'noli sözlar, iboralar juda köp uçraydi. Quyida birgina boş sözi bilan boğliq iboralar bilan tanişsangiz uning naqadar boyligini anglab yetasiz:

– boş egdi – itoat qildi, böysundi;
– boş qöşdi – aralaşdi, qatnaşdi;
– boş qotirdi – astoydil öyladi, çuqur fikrladi;
– boş oğriği – ortiqça taşviş, dahmaza;
– boşlarini bir joyga qovuştirdi – oila qurdi;
– boşi bilan şönğib ketdi – butunlay berilib ketdi;
– boşi kökka yetdi – behad sevindi;
– boşi yostiqqa yetganda – kasal bölib qolganda;
– boşi oqqan tomon – duç kelgan taraf;
– boşi osmonda – nihoyatda xursand;
– boşida danak çaqdi – qiynadi, ortiq darajada azobladi;
– boşidan oşib yotibdi – ortiq darajada, benihoya köp;
– boşdan oyoq – bus-butun, töla-tökis;
– boşiga kötardi I – qattiq şovqin qildi;
– boşiga kötardi II – yuksak darajada izzat-hurmat qildi;
– boşiga qiliç kelsa ham – har qanday şaroitda ham;
– boşiga yetdi – halok qildi;
– boşini aylantirdi – aldadi, esankiratdi;
– boş-qoş böldi – yölga soldi, rahnamolik qildi;
– boşsiz qoldi – egasiz qoldi;
– boşpanasiz qoldi – uysiz qoldi;
– boşi birikmadi – özaro kelişmadi;
– boş-qoş bölmadi – qaramadi, rahnamolik qilmadi.

Şuhrat RÖZIYEV tayyorladi.

Öqişni tavsiya qilamiz

ŞE’R – KÖNGIL MULKI

«Döstlik» ordeni sohibi, taniqli şoir, iste’fodagi polkovnik Zikrilla Ne’mat sermahsul ijodkor. Vafoiy taxallusida öttizga yaqin kitobi, şuningdek, «Onam ekkan rayhonlar» nomli saylanmasi çop etilgan. Şoir aruz vaznida ham barakali ijod qilib keladi. U 2014-yilda «Muxammas gulşani» töplamini kitobxonlarga tuhfa qilgan edi. Yaqinda esa «Vafo devoni»ni şe’riyat ixlosmandlariga taqdim etdi.

Ijodkorning muxammaslar töplami öz vaqtida akademik Aziz Qayumov, Özbekiston xalq şoirlari – Jumaniyoz Jabborov, Jamol Kamol tomonidan yuqori baholangan. Uning yangi devoniga badiiy jihatdan baho beriş aruz vazni bilimdonlariga havola. Men esa bir şe’riyat muxlisi, qolaversa, Zikrilla Ne’mat Vafoiy ijodining muhibi sifatida devonni mutolaa qiliş jarayonida olgan taassurotlarim bilan örtoqlaşmoqçiman.

Töplamning yarmidan köpini taşkil etgan ğazallari mavzu jihatdan rang-barang. Jumladan, suv, kitob vasfiga bağişlanganlari ham bor. Şoir bir ğazalida özining hayotiy dasturini şunday ifodalaydi:

Elga sendin ezgu bir söz,
ezgu bir iş qolmasa,
Ming yil davron sursang,
umri darozingdan ne foyda.

Boşqa bir ğazalida esa şoirlarga, avvalo öziga qarata deydi:

Oh urib, yozganlaring, ayt ne kerak,
Ahli işq bir satrini yod etmasa?!

Lekin an’anaga köra, ğazallarning aksariyati işq-muhabbat mavzusiga bağişlangan, albatta. Uning uçun muhabbatning asosiy şarti vafo, sadoqat.



Işqqa Vafo bir-la gözaldir hayot,
Bir umr yor bölur Baxt degan suluv.

Yana bir ğazalida esa şunday yozadi:

Men sadoqat gulşanin
közlab yöl olsam, jonginam,
Bir umrlik menga yöldoş,
nozli jononim böling.

Umuman, Zikrilla Ne’mat uçun vafo, sadoqat faqat sevgi bilan boğliq emas. U Vatanga, xalqqa, ijodga vafo qiliş kerak deb hisoblaydi. Şu ma’noda öziga «Vafoiy» taxallusini olgani ham, kitobni «Vafo devoni» deb nomlagani ham bejiz emas.

Ğazallarda şoirning iste’dodi, mahorati bor böyi bilan namoyon böladi. Quyidagi baytda «qaro» sözining ma’no tovlanişlariga, «qaro közim» jumlasining esa ikkala misrada ikki ma’noda qöllanilganiga e’tibor qiling:

Qaro közim qaro tundek
qaro soçingga zor aylab,
Qaro közim, ne qilsang ham mani
holim yomon qilding.

Endi mana bu baytdagi içki qofiyalar ğazalni naqadar jozibador etganiga e’tiboringizni qaratmoqçiman. Uni ovoz çiqarib öqisangiz, zavqingiz oşib ketadi.

Qalbingizni goh ezib ğam,
kiprigingiz bölsa-da nam,
Sizga mudom sodiq hamdam
döst-yorlardan umid uzmang.

Agar kitobdagi «Köngil sörang» ğazalini öqisangiz, biri-biridan gözal taşbehlarni özingiz uçun kaşf etasiz.

Ruboiy ohanglaridagi törtliklaridan birida esa şoir xudbinlikdan yiroq bölişga da’vat etib, inson hayotining asl mazmuni xalq, Vatan koriga yaraş ekanligini ta’kidlaydi:

Şör yer uza gul-u giyoh unmas emiş,
Quşqönmasga hattoki zoğ qönmas emiş.
Mehr-u muruvvatdan yiroq muz yuraklar
El dardiga zinhor darmon bölmas emiş.

Zukko kitobxon quyidagi tuyuq ham yuqoridagi törtlikka hamohang, ma’nodoş ekanligini bir öqişdayoq anglaydi:

Kim yaşar yolğon, kim ersa çinni deb,
Kim yaşar kezsam Rumo-yu Çinni, deb,
Ohki, kimdir umrin zoye ötkazur,
Arzimas, arzon sopol-u çinni, deb.

Kitobdan, şuningdek, mustazodlar, murabbalar, muxammaslar, musaddaslar, musammanlar, muvaşşaxlar, tarje’bandlar, tarkibbandlar, marsiya, qasidalar, çistonlar, qit’alar, fardlar ham örin olgan. Devon esa nafaqat kitob javoningizdan, balki qalbingiz töridan ham joy olib, köngil mulkingizga aylanadi deb umid qilamiz.

Bobomurod TOŞEV



Donolar sözlaydi, biz yodga solamiz



MUASSIS:
ÖZBEKISTON RESPUBLIKASI IÇKI IŞLAR VAZIRLIGI

Boş muharrir
podpolkovnik
Xurşidbek RÖZIYEV

Boş muharrir örinbosarlari
podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas’ul muharrirlar
Erkin SATTOROV
Sarvar SOBIROV

Veb-dizaynerlar
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Navbatçilar
Gulnoza TURĞUNBOYEVA
Yuliya MUSTAFAYEVA

TELEFONLAR:
71-231-33-88;
Obuna masalalari böyiça:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355

Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.
Özbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ğaznaçiligi.
Şaxsiy h/v
46001086026287703110179003
STIR 200637499.

Gazeta Özbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan röyxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toşkent şahri, Şota Rustaveli 1-berk köçasi 9-uy.

Buyurtma 3396.
Bosiliş – ofset usulida.
Biçimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
50498 nusxada çop etildi.

Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.
Taşkilotlar uçun – 366.
Bosişga topşiriş vaqti – 22.00.
Bosişga topşirildi – 21.00.
Sotuvda kelişilgan narxda.

«Kolorpak» MÇJ bosmaxonasida çop etildi.
Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangişahar köçasi 1A-uy.

Tahririyatga kelgan qölyozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi. Naşrimizdan köçirib bosilganda manba körsatilişi şart. Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.